O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI PEDAGOG KADRLARNI QAYTA TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI OSHIRISH MINTAQAVIY MARKAZI

# “Ijtimoiy qatlamlarning jamiyat tarixidagi o‘rni”

MODULI BO‘YICHA

O‘ Q U V – U S L U B I Y M A J M U A

Buxoro – 2024

Modulning  ishchi dasturi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy, o‘rta maxsus va professional ta’lim vazirligining 2024-yil 6-sentabrdagi  333- sonli sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan namunaviy o‘quv reja va dastur asosida ishlab chiqilgan.

Mazkur ishchi o‘quv dasturi Buxoro davlat  universiteti Kengashining 2024 -yil 24-avgustdagi 9-sonli yig‘ilish qarori bilan tasdiqlangan.

Tuzuvchi: **Sh.A.Hayitov**  - BuxDU Jahon tarixi kafedrasi professori, t.f.d.

Taqrizchi: **K.J.Rahmonov**–BuxDU Jahon tarixi kafedrasi dotsenti t.f.n.

# M U N D A R I J A


| | | |
|---|---|---|
| I. | IShChI DASTUR ........................................................................... | 4 |
| II. | MODULNI O‘QITIShDA FOYDALANILADIGAN INTERFAOL TA’LIM METODLARI …………………………… | 11 |
| III. | NAZARIY MAShG‘ULOT MATERIALLARI .................................. | 29 |
| IV. | AMALIY MAShG‘ULOT MATERIALLARI .................................. | 65 |
| V. | GLOSSARIY ........................................................................... | 119 |
| VI. | FOYDALANILGAN ADABIYoTLAR RO‘YXATI ............................ | 121 |

# I. IShCHI DASTUR

## Kirish

Ushbu ishchi dastur O‘zbekiston Respublikasining 2020 yil 23 sentabrda tasdiqlangan “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 3 dekabrdagi “Iqtidorli yoshlarni saralab olish tizimi va akademik litseylar faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4910-son hamda Vazirlar Mahkamasining 2022 yil 1 iyundagi “Akademik litseylar rahbar va pedagog xodimlarining uzduksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to‘g‘risida”gi 296-son Qarorlarida belgilangan ustuvor yo‘nalishlar hamda namunaviy dastur mazmunidan kelib chiqqan holda tuzilgan bo‘lib, u zamonaviy talablar asosida malaka oshirish jarayonlarining mazmunini takomillashtirish hamda akademik litseylar pedagog xodimlarining kasbiy kompetentligini muntazam oshirib borishni maqsad qiladi.

Ishchi dastur doirasida berilayotgan mavzular orqali akademik litseylarda faoliyat olib borayotgan tarix yo‘nalishi pedagoglarni tarix fanining dolzarb muammolariga oid bilimlar darajasini kengaytirish va chuqurlashtirish hisobiga ularning pedagogik mahorat va kasbiy kompetentligini muntazam takomillashtirish bilan bog‘liq bilim, ko‘nikma va malakalarga ega bo‘lishlari ta’minlanadi.

## Modulning maqsad va vazifalari

**Modulning maqsadi** ijtimoiy tarixiy voqea va hodisalarning kelib chiqishi hamda rivojlanib borishiga ta’sir etuvchi sabablarni anglash usullari, insoniyat taraqqiyotining notekisligi va farqlarni o‘stiruvchi hamda kamaytiruvchi omillari, taraqqiyotning uslubini tanlash imkoniyatining omillariga amal qilish bo‘yicha bilim, ko‘nikma va malakalarini oshirishdan iborat.

**Modulning vazifalariga** quyidagilar kiradi:

- tarix – o‘tmish, tarix– fan;
- ijtimoiy tarixiy taraqqiyot bosqichlari va uning qit’alar, hududlar bo‘yicha o‘ziga xosligini, globallashuv sharoitida ijtimoiy tarixni o’rganishning ahamiyati;
- zamonaviy tarixda ijtimoiy hayot va uni o‘rganish;
- mazkur modulni o‘qitishdagi jaxon mamlakatlarida qo‘llanadigan tajribalarni o‘zlashtirish hamda ulardan o‘quv jarayonida samarali foydalanish ko‘nikmalarini shakllantirish;

**Modul yakunida tinglovchilarning bilim, koʻnikma va malakalari hamda kompetentligiga qoʻyiladigan talablar:**

“Ijtimoiy qatlamlarning jamiyat tarixidagi oʻrni” modulini oʻzlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida:

**Tinglovchi:**

- “ ijtimoiy tarix” atamasi va uning mazmuni, mohiyatlarni;

ijtimoiy tarix va uning davrlar aro o’garib borishi;

- iqtisodiy vaziyatmimg ijtimoiy hayotga ta’siri;
- ijtimoiy hayotning jamiyat taraqqiyotiga ta’sirlarini **bilishi** kerak.

**Tinglovchi:**

- ijtimoiy tarix va uning jamiyatdagi oʻrni borasidagi zamonaviy qarashlarni shakllantirish;
- ijtimoiy hayotning oʻrta asrlarda va yangi tarix davridagi oʻziga xos xususiyatlarining mohiyatini tushunish;
- ijtimoiy hayot globallashuv davrida jamiyatdagi ta’sirini jshib borishi;
- insoniyat taraqqiyoti muammosiga nisbatan ishlab chiqilgan sintetik yondashuvni tahlil qilish ***koʻnikma va malakalariga*** ega boʻlishi lozim.

**Tinglovchi:**

- milliy davlatlar va diniy mansublik – yaqinlik va oʻzaro raqobat jarayonini tushunish;
- tarixiy taraqqiyotni anglashga nisbatan sivilizatsion yondashuvning mohiyati va ularga baho berish;
- tarixning davrlarini taqqoslash, tahlil qilish, baholash va xulosa chiqarish;
- zamonaviy tarixda siyosiy mezonlar va prinsiplarning (standartlarning) turli xilligini tahlil etish ***kompetensiyalariga*** ega boʻlishi lozim.

## MODUL BO‘YICHA SOATLAR TAQSIMOTI

| № | Modul mavzulari | Tinglovchiningo‘quv yuklamasi, soat | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | | Hammasi | Auditoriya o‘quv yuklamasi | | | Mustaqil ta’ lim |
| | | | Jami adutoriya soati | jumladan | | |
| | | | | Nazariy | Amaliy mashg‘ ulot | |
| 1. | Ijtimoiy tarix tarix fanining bir tarmog’i sifatida | **2** | **2** | **2** | | |
| 2. | Qadimgi davrda ijtimoiy hayotning o’ziga xos xususiyatlari | **2** | **2** | | **2** | |
| 3. | O’rta asrlar ijtimoiy hayotidagi o’zgarisglar | **2** | **2** | | **2** | |
| 4 | Yangi va eng yangi davrda ijtimoiy hayot | **2** | **2** | **2** | | |
| **JAMI** | | **8** | **8** | **4** | **4** | |

## NAZARIY MASHG‘ULOTLAR MAZMUNI

### 1-MAVZU: Ijtimoiy tarix tarix fanining bir tarmog’i sifatida (2 soat ma’ruza)

Ijtimoiy tarix atamasi va uning mazmuni, mohiyati. Ijtimoiy tarix tarix fanining bir tarmog’i sifatida. Ijtimoiy tarixni o’rganishning o’ziga xos xususiyatlari. Tarix – o‘tmish, tarix– fan sifatida. Tarixiy voqea va hodisalarning kelib chiqishi hamda rivojlanib borishiga ta’sir etuvchi sabablarni anglash usullari.

### 2-MAVZU: Yangi va eng yangi davrda ijtimoiy hayot (2 soat ma’ruza)

Yangi davr tarixining o’ziga xos jihatlari. Ijtimoiy munosabatlarning o’zgarib borishi. Shaxs masalasining o’zgarib borishi. Eng yangi davr tushunchasi. Masalaning tarixiy jihatlari. Ijtimoiy hayotni o’rganishning dolzarblashib borishi.

Ijtimoiy hayot ko’rsatkichkarining jamiyat hayotiga ta’siri. Globallashuv davrida ijtimoiy hayot ko’rsatkichlaring o’zgarib borishi.

## AMALIY MASHG‘ULOTLAR MAZMUNI

### 1-AMALIY MASHG‘ULOT: Qadimgi davrda ijtimoiy hayotning o’ziga xos xususiyatlari.(2 soat)

Qadimgi davr jamiyatining tuzulishi. Qadimgi davrdagi ijtimoiy tabaqalashuv va uning kelib chiqish sabablari. Ijtimoiy tabaqakashuvning mustahkamlanib borishi va uning davlat taraqqiyotiga ta’siri. Ijtimoiy tabaqalashuning mintaqalar bo’yicha xususiyatlari.

### 2-AMALIY MASHG‘ULOT: O’rta asrlar ijtimoiy hayotidagi o’zgarisglar.(2soat)

O’rta asarlar davri jamiyatining tuzulishi. O’rta asarlar davrigi ijtimoiy tabaqalashuv va undagi o’zgarishlarning sabablari. O’rta asarlar davridai ijtimoiy tabaqalashuvning mustahkamlanib borishi va uning feodal davlat taraqqiyotiga ta’siri. O’rta asarlar davridagi ijtimoiy tabaqalashuning mintaqalar bo’yicha xususiyatlari

## ADABIYOTLAR RO‘YXATI


### I. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining asarlari

1. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: “O‘zbekiston”, 2017. – 488 b.
2. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. 1-jild. – T.: “O‘zbekiston”, 2017. – 592 b.
3. Mirziyoyev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. 2-jild. T.: “O‘zbekiston”, 2018. – 507 b.
4. Mirziyoyev Sh.M. Niyati ulug‘ xalqning ishi ham ulug‘, hayoti yorug‘ va kelajagi farovon bo‘ladi. 3-jild.– T.: “O‘zbekiston”, 2019. – 400 b.
5. Mirziyoyev Sh.M. Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari. 4-jild.– T.: “O‘zbekiston”, 2020. – 400 b.
6. Mirziyoyev Sh.M.“Yangi O‘zbekiston strategiyasi” “O‘zbekiston”, 2021.-464 b.
7. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O’zbekiston taraqqiyot strategiyasi.To’ldirilgan ikkinchi nashri.– Toshkent: “O’zbekiston”, 2022. – Б. 133.

### II. Normativ-huquqiy hujjatlar

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T.: O‘zbekiston, 2023.
2. O‘zbekiston Respublikasining 2020 yil 23 sentabrda qabul qilingan “Ta’lim to‘g‘risida”gi O‘RQ-637-sonli Qonuni.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 22 yanvar “2022 - 2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son Farmoni.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 26 sentabr “Oliy ta’lim muassasalariga kirish uchun nomzodlarni maksadli tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi PQ-3290-sonli Qarori.

11. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 3 dekabrdagi “Iqtidorli yoshlarni saralab olish tizimi va akademik litseylar faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-4910-son Qarori.
12. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022 yil 1 iyundagi “Akademik litseylar rahbar va pedagog xodimlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to‘g‘risda” 296-son Qarori.

## Ш. Maxsus adabiyotlar

13. Абриев Р.Б. Ўзбекистон мустақиллиги йилларида тарихий-меъморий обидаларни, таъмирлаш ва қайта тиклаш жараёнлар.–Тошкент: Фан, 2015.

14. Коджаспирова Г.М. Педагогика в схемах, таблицах и опорных конспектах./ М.:Айрис-пресс, 2006.

15. Azamat Ziyo. O‘zbek davlatchiligi tarixi: (Eng qadimgi davrdan Rossiya bosqiniga qadar). T.: Sharq. 2000.

16. Sagdullayev va boshqalar. O‘zbekiston tarixi: davlat va jamiyat taraqqiyoti. T., 2000.

17. Sagdullayev A.S., Mavlonov O‘. O‘zbekistonda davlat boshqaruvi tarixi. - T., 2006.

18. Ртвеладзе Э.В. История государственности Узбекистана. -Т.: Узбекистан. 2009.

19. Ешов Б.Ж. Ўзбекистон давлатчилиги тарихи. (ўқув қўлланма). - Т.:Маърифат, 2009.

*20.* Yo‘ldoshev S.V., Tojiboyev M. Etnotoponimika. O‘quv qo‘llanma/- Farg‘ona: 2021.

*21.* Ahmadaliyev Y. Farg‘ona viloyati toponimlari. Farg‘ona., “Farg‘ona”.2009

*22.* Гумилев Л. Этногенез и биосфера земли. -Л.: Гидрометиздат. 1990.

23. Бобров И.В. и др. История мировых цивилизаций часть I. Учебное пособие. Тюмень 2004

24. Бобров И.В. и др. История мировых цивилизаций часть II. Учебное пособие. Тюмень 2004

25. SH.Ergashev. Qadimgi sivilizatsiyalar. - T.: O‘zbekiston, Tixonravov Y.V. Geopolitika. M., 2000.

26. Гаджиев К.С. Введение в геополитику. М., 2001.

27. Нартов Н.А. Геополитика. М., 2002.

28. Xo‘janov B.A. Geosiyosat asoslari. T., 2002.

29. Tolipov F. Bolshaya strategiya Uzbekistana v kontekste geopoliticheskoy i ideologicheskoy transformatsii Sentralnoy Azii. T., 2005.

30. Safoyev S.S. Markaziy Osiyodagi geosiyosat. T., 2005.

31. Bhuvan Garg. Teachingofhistory. India. New Delhi.: Rajatpublications. 2010.

32. James B. M. Schick., Teaching History Witha Computer: A Complete Guidefor College Professors. USA. 2009.

33. Гринин Л. Е. О стадиях эволюции государства. Проблемы теории // История и современность. 2006. № 1.

34. Государство на Древнем Востоке. М., 2004.

35. Каспэ С.И. Империи генезис, структура, функции // Каспэ С.И. Политические исследования. М., 1997.

36. Ҳайитов Ш., Раҳмонов К., Аҳмадов О. Бухоро ва бухорийларнинг жаҳоний шуҳрати. –Тошкент: Наврўз, 2020. -208 б.

37. Ўзбекистон тарихи (1917-1991 йиллар). Иккита китоб. Биринчи китоб. 1917-1939 йиллар. Масъул муҳаррирлар: Р.Абдуллаев, М.Раҳимов, Қ.Ражабов. – Тошкент: O‘zbekiston, 2019. -560 б.

38. Ўзбекистон тарихи (1917-1991 йиллар). Иккита китоб. Иккинчи китоб. 1939-1991 йиллар. Масъул муҳаррирлар: Р.Абдуллаев, М.Раҳимов, Қ.Ражабов. – Тошкент: O‘zbekiston, 2019. -576 б.

39. Жуманазаров А. Бухоро таълим тизими тарихи. –Тошкент: Akademnashr, 2017. -592 б.

40. Raxmonov K.J.Jahon tarixi fani bo‘yicha innovasiya va interfaol metodlarni tadbiq etish. Uslubiy qo‘llanma. Buxoro-2022 yil, 68 bet.

41. Subtelny M.E. Timurids in Transition Turko-Persian Politics and Acculturation in Medieval Iran. - Leiden-Boston, 2007.

42. Mazar Documents from Xinjiang and Ferghana (Facsimile) 3. Edited by A.Muminov, N.Abdulahadov, K.Yayoi. - Tokyo: Tokyo University of Foreign Studiyes, (StudiaCulturaeIslamicae, 88), 2007.- 234 p.

43. Ritter K. (Soviet modernism 1955-1991/Unknown History. Zurih-2012).; BlochetE. Musulmon Painting. MiniaturePainting. 2016

44. Q.Rajabov. O’zbekiston XX asrda. –T. 2024.

45. Sh. Haitov. Tarixiy shaxslar tarix ko’sgusida. T. 2024.

46. K.J.Raxmonov. “Buxoro Xalq Sho‘rolar Jumhuriyati: milliy matbuot talqinida. Ijtimoiy ahvol”. –T. 2024.

47. K.J.Raxmonov. “Tarix fanini o‘qitishda innovasion texnologiyalar”. o‘quv qo‘llanma. –T. 2024.

## IV. Internet saytlar

37. http://natlib.uz–Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi

38. http://yedu.uz – O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi

39. http://lex.uz– O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi

40. http://lib.bimm.uz– Oliy ta’lim tizimi pedagog va rahbar kadrlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishni tashkil etish bosh ilmiy-metodik markazi

41. http://ziyonet.uz– Ta’lim portali ZiyoNET

42. https://tarixinstituti.uz/uzb/Bo‘limlar

# II. MODULNI O‘QITIShDA FOYDALANILADIGAN INTREFAOL TA’LIM METODLARI

**Yuqoridagi mavzularga tayyorgarlik ko‘rishda tavsiya qilingan interfaol metodlarni ilova sifatida kiritdik.**

***1-ilova***

## 1. Ta’lim vositalarining klassifikatsiyasi.

Ijtimoiy voqelik ta’limni boshqarish muammolarini ko‘rib chiqish va hal qilishni mustaqil yo‘nalish sifatida ajratib olish, ta’lim-tarbiya jarayonini boshqarishning asoslangan usul, vositalarini ishlab chiqish va joriy qilish zaruratini belgilab berdi. Uning o‘qitish, tarbiyalash va rivojlantirish o‘rtasidagi tashkiliy-boshqaruv, axborot aloqalari, ijtimoiy jihatdan ahamiyatga molik shaxsni shakllantirishdagi yaxlit jarayonning tarkibiy qismlari sifatini oshirdi.

Bugungi kunda erkin va mustaqil fikrlovchi, ijtimoiy-siyosiy hayotda ongli ravishda faol ishtirok etishga qodir yosh avlodni shakllantirish «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» ning asosiy ustuvor yo‘nalishidir. Bu esa mamlakatning ijtimoiy-siyosiy hayotiga demokratik asoslarini joriy etishni, fuqarolik jamiyati va huquqiy davlat qurishni tezlashtirish imkonini beradi. Dastur ta’lim muassasalari mustaqilligini kengaytirish orqali ta’lim boshqaruvini demokratlashtirishni o‘z ichiga oladi.

Insoniyatning rivojlanish davrlari almashganda pedagogik texnologiyalar butunlay yo‘q bo‘lib ketmaydi, balki pedagogik texnologiyalar keyingi davrlarga assotsiatsiya orqali fikran bog`lanadi, yangi sifatlar, xususiyatlarga ega bo‘lib, kuchayadi va boyiydi. Ushbu jarayon borgan sari tezlashib boradi.

Kishilik tarixida 1-bosqich uzoq muddat davom etgan. Unda o‘qituvchi o‘z kuchiga, o‘z bilim va mahoratiga asoslanib ish bajargan. Keyinchalik dunyoviy va diniy mazmundagi qo‘lyozma kitoblar yaratildi, lekin o‘quvchi ularning mazmunini o‘qituvchi faoliyati vositasida o‘zlashtiradi.

2-bosqich darsliklar yaratish va ulardan foydalanish texnologiyasi mukammal rivojlanmagan, lekin o‘qitishning 1,2,3-bosqichlariga xos ta’lim vositalari maktablarga jadal kirib bormoqda.

O‘quv adabiyotlarini joriy etish qarama-qarshiliklar ko‘rashi natijasida sodir bo‘lgan. Keyingi davrlarda ham ta’lim sohasidagi jiddiy o‘zgarishlar oson kechmagan. Bugungi kunda ham 1-bosqich texnologiyasi ruhida shakllangan ayrim pedagoglarda keyingi davrlarda vujudga kelgan o‘quv vositalarini o‘zlashtirib olishga, ta’lim-tarbiya jarayonini shu asosda tashkil etishga intilish sust darajada. 1-bosqich o‘quv vositalari o‘qituvchidan ko‘p mehnat talab etadi va o‘quvchining bilim, tayyorgarlik darajasi yuqori bo‘lmaydi. Bu pedagogik bosqichlarning har birida ta’lim metodlari takomillashtirila borganligi tufayli o‘qituvchi mehnatining samarasi ortib, zamonaviy texnologiyani qo‘llaydiganlar safi kengaya borgan.

**Ta’lim vositalari oltita turga bo‘linadi:**

1. **Matnli vositalar.**
2. **Tasvirli vositalar.**
3. **Audio vizual vositalar.**
4. **Yordamchi (jixoz) vositalar.**
5. **Modelli vositalar.**
6. **Real vositalar.**

•**Matnli vositalar-**O‘qituvchi va o‘quvchilar uchun: o‘quv predmetini o‘qitish metodikasi bo‘yicha qo‘llanmalar, shaxsiy metodika, o‘qituvchilar tomonidan tayyorlangan metodik ishlanmalar, mantiqiy strukturalar, fan darsliklari, mavzu yuzasidan kelib chiqqan holda tarixiy badiiy adabiyotlar, fan bo‘yicha ma’ruzalar matni.

•**Tasvirli vositalar-** o‘quv materialini ko‘rgazmali namoyish etishga, uni tizimli etkazib berishga yordam beradi; talabalarga o‘quv materialini tushunishlariga va yaxshi eslab qolishlariga imkon beradi (videoproektor, Vidiofilmlar, rasmlar, haykallar, portret).

•**Audio vizual vositalar-**Matnga ovoz berish, Lingafon vositalari, radio eshittirishlaridan foydalanish, stenogramma matreallari, turli xildagi disklar va hakozolar.

•**Yordamchi (jixoz) vositalar-** Grafoproektor, Doska-bloknot, Doska-stend, Flipchart, va boshqalar).

•**Modelli vositalar-** grafiklar, chizmalar, sxema, xaritalar

•**Real vositalar-** tarix darslarida muzey eksponatlari, maket va mulyajlar, arxeologik matreallar, tarixiy obektlar.

***2-ilova***

**2. Ta'lim vositalarini tanlashni aniqlovchi omillar, grafik organayzerlar.**

Ta'lim vositalarini tanlashni aniqlovchi omillar: maqsadni belgilash; o'quv axborot mazmuni; ta'lim vositalari; yetakchi bilim manbai; o'quv materialining yangiligi va murakkabligi.

**Grafikli organayzerlar texnikasi**




Графикли органайзерлар (ташкил этувчи) – фикрий жараёнларни кўргазмали тақдим этиш воситаси.
Маълумотларни таркиблаштириш ва таркибий бўлиб чиқиш, ўрганилаётган тушунчалар (воқеа ва ҳодисалар, мавзулар) ўртасидаги алоқа ва ўзаро боғлиқликни ўрнатиш усул ва воситалари: Кластер, Тоифалаш жадвали, Инсерт, Б/БХ/Б жадвали
Маълумотларни таҳлил қилиш, солиштириш ва таққослаш усул ва воситалари: Т-жадвали, Венн диаграммаси
Муаммони аниқлаш, уни ҳал этиш, таҳлил қилиш ва режалаштириш усуллари ва воситалари: «Нима учун?», «Балиқ скелети», «Поғона», «Қандай?» иерархик диаграммаси ва ҳ.к.

***3-ilova***


Кластер
КЛАСТЕР
(Кластер-тутам, боғлам)- ахборот харитасини тузиш йўли- барча тузилманинг моҳиятини марказлаштириш ва аниқлаш учун қандайдир бирор асосий омил атрофида ғояларни йиғиш.
Билимларни фаоллаштиришни тезлаштиради, фикрлаш жараёнига мавзу бўйича янги ўзаро боғланишли тасаввурларни эркин ва очиқ жалб қилишга ёрдам беради.
Кластерни тузиш қоидаси билан танишадилар. Ёзув тахтаси ёки катта қоғоз варағининг ўртасига асосий сўз ёки 1-2 сўздан иборат бўлган мавзу номи ёзилади
Бирикма бўйича асосий сўз билан унинг ёнида мавзу билан боғлиқ сўз ва таклифлар кичик доирачалар “йўлдошлар” ёзиб қўшилади. Уларни “асосий” сўз билан чизиқлар ёрдамида бирлаштирилади. Бу “йўлдошларда” “кичик йўлдошлар” бўлиши мумкин. Ёзув ажратилган вақт давомида ёки ғоялар тугагунича давом этиши мумкин.
Муҳокама учун кластерлар билан алмашинадилар.
5

## Кластерни тузиш қоидаси

1. Ақлингизга нима келса, барчасини ёзинг. Ғоялари сифатини муҳокама қилманг фақат уларни ёзинг.
2. Хатни тўхтатадиган имло хатоларига ва бошқа омилларга эътибор берманг.
3. Ажратилган вақт тугагунча ёзишни тўхтатманг. Агарда ақлингизда ғоялар келиши бирдан тўхтаса, у ҳолда қачонки янги ғоялар келмагунча қоғозга расм чизиб туринг.

7



# ТОИФАЛАШ ЖАДВАЛИ

**ТОИФАЛАШ ЖАДВАЛИ**

Тоифа-хусусият ва муносабатларни муҳимлигини намоён қилувчи (умумий) аломат.

Ажратилган аломатлар асосида олинган маълумотларни бирлаштиришни таъминлайди.

Тизимли фикрлаш, маълумотларни тузилмага келтириш, тизимлаштириш кўникмаларини ривожлантиради.

Тоифали шарҳлашни тузиш қоидаси билан танишадилар. Ақлий ҳужум / кластер тузиш/ янги ўқув материали билан танишишдан сўнг, кичик гуруҳларда, олинган маълумот лавҳаларини бирлаштириш имконини берадиган тоифаларни излайдилар.

Тоифаларни жадвал кўринишида расмийлаштирадилар. Ғояларни / маълумотларни тоифага мос равишда бўладилар. Иш жараёнида тоифаларнинг айрим номлари ўзгариши мумкин. Янгилари пайдо бўлиши мумкин.

Иш натижаларининг тақдимоти

o

***5-ilova***

# *Тоифалаш шарҳини тузиш қоидаси*

1. Тоифалар бўйича маълумотларни тақсимлашнинг ягона усули мавжуд эмас.
2. Битта мини - гуруҳда тоифаларга ажратиш бошқа гуруҳда ажратилган тоифалардан фарқ қилиши мумкин.
3. Таълим олувчиларга олдиндан тайёрлаб қўйилган тоифаларни бериш мумкин эмас бу уларнинг мустақил танлови бўла қолсин.

9

# ТОИФАЛАШ ЖАДВАЛИ

| Дастурий таъминот | | |
|---|---|---|
| Тизимли дастурий таъминот | Амалий дастурлар пакетлари | Дастурлаш тиллари |
| 1. Операцион тизимлар:<br>▪MS DOS<br>▪Linux<br>▪Windows<br>▪Unix<br>2. Сервис дастурлар:<br>▪Антивирус дастурлари<br>▪Утилитлар<br>▪Оболочки<br>▪Архиваторлар ва ҳ.қ.. | 1. МББТ<br>2. Матн муҳарирлар<br>3. Электрон жадваллар<br>4. График муҳарирлар<br>5. Таржимачилар<br>6. Муаммога мўжалланган ва ҳ.қ.. | 1. Паскаль<br>2. Delphi<br>3. СИ++<br>4. Бейсик<br>5. Java<br>6. PHP ва ҳ.қ. |

10

***6-ilova***

# ИНСЕРТ ЖАДВАЛИ

**График ташкил этувчининг тури, аҳамияти ва хусусиятлари**

**“ИНСЕРТ” жадвали**
**Мустақил ўқиш вақтида олган маълумотларни, эшитган маърузаларни тизимлаштиришни таъминлайди; олинган маълумотни тасдиқлаш, аниқлаш, четга чиқиш, кузатиш. Аввал ўзлаштирган маълумотларни боғлаш қобилиятини шакллантиришга ёрдам беради**

**Ўқув фаолиятини ташкиллаштиришнинг жараёнли тузилмаси**

***Инсерт жадвалини тўлдириш қоидаси билан танишадилар. Алоҳида ўзлари тўлдирадилар***

**Ўқиш жараёнида олинган маълумотларни алоҳида ўзлари тизимлаштирадилар - жадвал устунларига “киритадилар” матнда белгиланган қуйидаги белгиларга мувофиқ:**
**“V”- мен билган маълумотларга мос;**
**“-“ - мен билган маълумотларга зид;**
**“+” - мен учун янги маълумот;**
**“?” - мен учун тушунарсиз ёки маълумотни аниқлаш, тўлдириш талаб этилади**




*7-ilova*




*8-ilova*

# Б/БХ/Б ЖАДВАЛИ

| Биламан | Билишни хоҳлайман | Билиб олдим |
|---|---|---|
| | | |



# Т – жадвал

**Т – жадвал**
- бита концепция (маълумот)нинг жиҳати ўзаро солиштириш ёки уларни (ҳа/йўқ, ҳа/қарши) учун.
Танқидий мушоҳада ривожлантиради

Т – жадвал қоидалари танишилади. Якка тартибда расмийлаштирилади

Ажратилган вақт оралиғида тартибда (жуфтликда) тўлдиради, унинг чап томонига сабаблари ёзилади, ўнг томонига эса чап томонда ифода қарама – қарши ғоялар, омиллар ва шу кабилар.

Жадваллар жуфтликда (гуруҳда) таққосланиши тўлдирилиши

Барча ўкув гуруҳи ягона Т – тузади.

## Т- ЖАДВАЛ «Тест назорати»

| Ютуғи | Камчилиги |
|---|---|
| Ватқни тежалиши | Нутқнинг ривожлан-маслиги. |
| Фронтал ҳолда иш олиб бориш имкони | Мулоқотнинг йўқлиги. |
| Мантқий фикрни ривожлантириш. | Ҳамкорликда фао-лиятнинг йўқлиги. |
| Баҳолаш қулай | Педагогик муно-сабатнинг йўқлиги. |

*9-ilova*

## ВЕНН ДИАГРАММАСИ

**ВЕНН ДИАГРАММАСИ** - 2 ва 3 жиҳатларни ҳамда умумий томонларини солиштириш ёки таққослаш ёки карама-карши қўйиш учун қўлланилади.

Тизимли фикрлаш, солиштириш, таққослаш, таҳлил қилиш кўникмаларини ривожлантиради.

Венн диаграммасини тузиш қоидаси билан танишадилар. Алоҳида кичик гуруҳларда Венн диаграммасини тузадилар ва кесишмайдиган жойларни (х) тўлдирадилар

Жуфтликларга бирлашадилар, ўзларининг диаграммаларини таққослайдилар ва тўлдирадилар

Доираларни кесишувчи жойида, икки-уч доиралар учун умумий бўлган, маълумотлар рўйхатини тузади.

## «Венн» диаграммаси

- 2 объектни, тушунчани, ғояни, ҳодисани таққослаш фаолиятини ташкил этиш жараёнида ишлатилади.

*10-ilova*

## "Нима учун" схемаси

"Нима учун" схемасини тузиш қоидаси билан танишадилар. Алоҳида/кичик гурҳларда муаммони ифодалайдилар. "Нима учун" сўроғини берадилар ва чизадилар, шу саволга жавоб ёзадилар. Бу жараён муаммонинг дастлабки сабаби аниқланмагунича давом этади.

Кичик гуруҳларга бирлашадилар, таққослайдилар, ўзларининг чизмларини тўлдирадилар. Умумий чизмага келтирадилар.

Иш натижаларининг тақдимоти

**"Нима учун" схемаси-** муаммонинг дастлабки сабабларини аниқлаш бўйича фикрлар занжири.
Тизимли, ижодий, таҳлилий фикрлашни ривожлантиради ва фаоллаштиради.


Нима учун?
Нима учун?
Нима учун?
Нима учун?
«Нима учун?» чизмасини тузиш қоидалари
1. Айлана ёки тўғри тўртбурчак шакллардан фойдаланишни ўзингиз танлайсиз.
2. Чизманинг кўринишини - мулоҳазалар занжирини тўғри чизиқлими, тўғри чизиқли эмаслигини ўзингиз танлайсиз.
3. Йўналиш кўрсаткичлари сизнинг қидирувларингизни: дастлабки ҳолатдан изланишгача бўлган йўналишингизни белгилайди.

***11-ilova***


"Балиқ скелети" чизмаси
"Балик скелети" чизмаси
Бир қатор муаммоларни тасвирлаш ва уни ечиш имконини беради.
Тизимли фикрлаш, тузилмага келтириш, таҳлил қилиш кўникмаларини ривожлантиради
Чизмани тузиш қоидаси билан танишадилар. Алоҳида/кичик гуруҳларда юқори "суягида" кичик муаммони ифодалайди, пастда эса, ушбу кичик муаммолар мавжудлигини тасдиқловчи далиллар ёзилади
Кичик гуруҳларга бирлашадилар, таққослайдилар, ўзларининг чизмларини тўлдирадилар. Умумий чизмага келтирадилар.
Иш натижаларининг тақдимоти


"БАЛИҚ СКЕЛЕТИ" ЧИЗМАСИ
...

*12-ilova*


Тузилмавий-мантиқий чизма
"Поғона"
25

## Тузилмавий-мантиқий чизма “Поғона”ни қуриш қоидалари

*1. «Погона»ни тузиш жараёнида тизимли схеманинг таркибий қисми ва элементларини силжитиш мумкин – бу у ёки бу ҳолатни қайта фикрлаш имконини беради.*

*2. Агарда сиз ғояларни ишлаб чиқишда тор йўлакка кириб қолсангиз, у ҳолда бир-икки даража юқорига қайтинг ва муҳим нарсани унутмаганингизга ҳамда бошқача нимадир қилиш мумкин эканлигини кўриб чиқинг.*

*3. Сиз чапдан ўнгга ёзишга ўргангансиз. «Каскад» қуришни ўнгдан чапга қараб тузишга ҳаракат қилинг. Бунинг учун асосий ғояни чап тарафда эмас, балки ўнг тарафда жойлаштиринг.*

26

***13-ilova***

## «Қандай» технологияси

- Муаммони қандай ҳал этиш мумкин эканлиги муҳокама қилинади

- Қандай?
- Қандай?
- Қандай?
- Қандай?
- Қандай?
- Қандай?
- Қандай?

## «Қандай?» диаграммасини қуриш қоидалари

*1. Кўпгина ҳолларда муаммони ечишда “нима қилиш керак”лиги тўғрисида ўйланиб қолмаслигингиз керак. Асосан муаммо, уни ечишда “буни қандай қилиш керак?”, “қандай”асосий саволлар юзага келишидан иборат бўлади.*
*“Қандай” саволларининг изчил берилиши қуйидагилар имконини беради:*
*муаммони ечиш нафақат бор имкониятларни, балки уларни амалга ошириш йўлларини ҳам тадқиқ қилиш;*
қуйидан юқорига босқичма-босқич бўйсунадиган ғоялар тузилмасини аниқлайдилар.
Диаграмма стратегик даражадаги саволлар билан ишлашни бошлайди. Муаммони ечишнинг пастки даражаси биринчи галдаги ҳаракатларнинг рўйхатига мос келади.
*1. Барча ғояларни ўйлаб ўтирмасдан, баҳоламасдан ва таққосламасдан тезликда ёзиш керак;*
*Диаграмма ҳеч қачон тугалланган бўлмайди: унга янги ғояларни киритиш мумкин;*
*Агарда чизмада савол унинг “шохларида” бир неча бор қайтарилса, унда у бирор муҳимликни англатади. У муаммони ечишнинг асосийси бўлиши мумкин;*
*Янги ғояларни график кўринишда: дарахт ёки каскад кўринишидами, юқоридан пастгами ёки чапдан ўнгда қайд қилинишини ўзингиз ҳал этасиз;*
*Агарда сиз ўзингизга тўғри саволлар берсангиз ва унинг ривожланиш йўналишини намоён бўлишида ишончни сақласангиз, диаграмма, сиз ҳар қандай муаммони амалий жиҳатдан ечимини топишингизни кафолатлайди*

| | |
|---|---|
| 3. Muammoli vaziyatni tahlil qilish | Asosiy muammo va kichik muammolarga diqqatingizni jalb qiling.<br>• ***Asosiy muammo:*** . Mexnat resurslari sabablari va uning mohiyatini tahlil eting.<br>Quyidagi savollarga javob berishga harakat qiling.<br>1. Mexnat resurslari tarkibi necha kismdan iborat?<br>2. Aholining ijtimoiy tarkibi nima?<br>3. Demografik strukturalar nimalar kiradi?<br>4. Davlat funktsiyalarini anilang?<br>Asosiy muammo nimaga qaratilganini aniqlang. Muammoning asosiy mazmunini ajratib oling. Muammoli vaziyatni tahlil qilish – ob’ektning holatini aniqlang, asosiy qirralariga e’tibor qarating, muammoli vaziyatning hamma tomonlarini tahlil qiling. |

**“Muammoli vaziyat” jadvalini to‘ldiring**

| Vaziyatdagi muammolar Turi | Muammoli vaziyatning kelib chiqish sabablari | Hal etilgan xulosalar |
|---|---|---|
| Mehnat resurslari deb nimaga aytiladi? | | |

| Этнодемография | Этноэкология |
|---|---|
| | |

**«Nima uchun» organayzeri**




Меҳнат миграцияси

**To‘ldirilgan jadval (o‘qituvchi oldindan to‘ldiradi – talaba qo‘liga berilmaydi)**

| Muammoli vaziyat | Muammoli vaziyatning kelib chiqish sabablari |
|---|---|
| Respublikaning o‘ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib, mutaxassis olimlar tomonidan viloyat yoki viloyatlar darajasidagi qanday ma’muriy-hududiy birliklarga ajratadilar? | Respublikaning o‘ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib, mutaxassis olimlar tomonidan viloyat yoki viloyatlar darajasidagi ma’muriy-hududiy birliklar sifatida 6 ta mintaqaga ajratadilar: Toshkent (Toshkent shahri va Toshkent viloyati); Mirzacho‘l (Sirdaryo va Jizzax viloyatlari); Farg‘ona (Andijon, Namangan, Farg‘ona viloyatlari); Zarafshon (Samarqand, Buxoro, Navoiy viloyatlari); Quyi Amudaryo (Xorazm viloyati va QQR); Janubiy (Qashqadaryo, Surxondaryo viloyatlari) mintaqalardir. |

# II. NAZARIY MAShG‘ULOT MATERIALLARI

## NAZARIY MASHG‘ULOTLAR MAZMUNI

### 1-MAVZU: Ijtimoiy tarix tarix fanining bir tarmog‘i sifatida (2 soat ma’ruza)

**Reja:**

1. Ijtimoiy tarix atamasi va uning mazmuni, mohiyati. Ijtimoiy tarix tarix fanining bir tarmog‘i sifatida.
2. Ijtimoiy tarixni o‘rganishning o‘ziga xos xususiyatlari. Tarix – o‘tmish, tarix – fan sifatida.
3. Tarixiy voqea va hodisalarning kelib chiqishi hamda rivojlanib borishiga ta’sir etuvchi sabablarni anglash usullari.

**Ijtimoiy tarix –** bu ijtimoiy hayotning umumiy shakllaridagi o‘zgarishlarga aniq e’tibor qaratiladigan tarix bo‘limi[1].

Tarixning umumiy kontseptsiyasida ham fan ma’nosida, ham ushbu fan tomonidan o‘rganilayotgan mavzu ma’nosida ijtimoiy tarix madaniy va siyosiy tarix tarixiga qarama-qarshidir. Ijtimoiy tarix tor ma’noda ijtimoiy tizim tarixini, uning sinfiy (yoki sinfiy) tarkibini, alohida ijtimoiy sinflar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarni, ularning jamiyat tomonidan ifodalangan umuman iqtisodiy va siyosiy mavqeini ulardagi intilishlari va harakatlarini anglatadi.

Ijtimoiy tarixning tarixshunoslikning alohida yo‘nalishiga bo‘linishi yaqinda sodir bo‘ldi, chunki sinfiy munosabatlar va ulardan kelib chiqadigan harakatlar faqatXIX asr o‘rtalarida maxsus tadqiqot mavzusiga aylandi.

Olimlarni ijtimoiy tarix bilan shug‘ullanishga nafaqat tarix fanining ichki rivojlanishi, balki sotsiologiyaning rivojlanishi va hayotning o‘zida ijtimoiy savolning keskinlashishi ham sabab bo‘ldi, bu nazariy sotsializmning o‘sishida ham namoyon bo‘ldi. Xususan, ijtimoiy tarixning vujudga kelishiga XVIII asrning 40-yillarida boshlangan tarix fani bilan siyosiy iqtisodning o‘zaro yaqinlashuvi katta ta’sir ko‘rsatdi. O‘sha davrda madaniyat tarixining ayrim vakillari, asosan, pragmatik tarixdan farqli o‘laroq, tarixshunoslikning yagona ilmiy shaklini faqat unda ko‘rdilar, shuning uchun biroz keyinroq ba’zi tarixchilar faqat ijtimoiy tarix

qat’iy ilmiy xususiyatga ega bo‘lishi mumkinligini ta’kidladilar. Xususan, ijtimoiy tarix ba’zan iqtisodiy tarix bilan belgilanadi, bu bir xil narsadan uzoqdir. Ijtimoiy tarixni bitta iqtisodchiga qisqartirish uning ufqlarini sezilarli darajada toraytiradi, hayotdagi muhim rol - madaniy va siyosiy omillarni hisobga olgan holda, ikkinchi tomondan, iqtisodiy tarixning ko‘plab xususiyatlari, bunda katta ahamiyatga ega uning vakolatidan tashqarida. Shunga qaramay, ijtimoiy tarix iqtisodiy tarix bilan ayniqsa yaqin aloqada bo‘lishi kerak va shu ma’noda tarixda ijtimoiy tuzilish va sinfiy kurashga qaratilgan iqtisodiy materializm ijtimoiy tarixning rivojlanishi uchun muhim ahamiyatga ega. Ijtimoiy tarix kundalik tarix bilan juda yaqin aloqada bo’lib kelgan bo’lishi qaramay kundalik keyinroq unda alohida shakllandi.

**Kundalik hayot tarixi** (nemischa: *Alltagsgeschichte*) tarix fanini rivojlantirishning zamonaviy yo‘nalishlaridan biridir. U XX asrning ikkinchi yarmida “yangi tarix” deb ataladigan jarayonida shakllangan.

Ushbu yo‘nalish doirasida hayot, mehnat va dam olish sharoitlari (turmush, turmush sharoiti, ovqatlanish tartibi, davolash usullari, ijtimoiy moslashuv), shuningdek, ong va xulq-atvor normalarini shakllantirishga ta’sir etuvchi omillar bo‘yicha tadqiqotlar olib borilmoqda., ijtimoiy-siyosiy imtiyozlar va boshqalar. Ma’lum bir tarixiy davrda mamlakat aholisining katta qismi (“oddiy odamlar”). Kundalik hayot tarixi – ularsiz tarix bo‘lishi mumkin bo‘lmagan, ammo tarixchilar uchun tarixda asosan “nomsiz” va “jim” qolganlar tarixi.

Tarixshunoslikda kundalik hayot tarixi[tahrir | manbasini tahrirlash]

Kundalik hayot tarixi tarix fanining rivojlanishining alohida yo‘nalishi sifatida G‘arbiy Germaniya yosh avlod olimlari orasida rivojlangan bo‘lib, ular nemis tarix fanining tizimli inqirozi sharoitida yangi va so‘nggi tarixni an’anaviy o‘rganishga qarshi chiqdilar. Germaniya ijtimoiy tarixi (asosan davlat siyosati, global ijtimoiy va iqtisodiy tuzilmalar va jarayonlar) „kichik hayot dunyolari“ va oddiy fuqarolarning kundalik hayotini o‘rganish bilan. Kundalik hayot tarixini shakllantirish uchun asos, bir tomondan, nemis fuqarolarining iqtisodiyot va ijtimoiy hayotda tez va tub o‘zgarishlarga umid qilishdan umidsizlikka tushishi, ikkinchi tomondan, cheksiz imkoniyatlarga shubha bilan qarash edi. sanoat jamiyati. Shu ma’noda, kundalik hayot tarixi bir vaqtlar yangi, „muqobil“ madaniy

harakat va "muqobil tarixshunoslik" sifatida qabul qilingan. Buyuk Britaniyada yangi Britaniya ijtimoiy tarixining „otasi“ E.Tompsonning asarlari (xususan, uning mashhur „Ingliz ishchi sinfining shakllanishi“ (1963) monografiyasi), shuningdek, liberal-soxada ishlagan, u yerdagi kundalik turmush tarixining rivojlanishiga katta ta’sir ko‘rsatgan ingliz tarixchilari ijtimoiy tarix va turli ijtimoiy guruhlar va shaxslar kundalik hayotining turli tomonlari haqiqiy mozaikasining nazariy rasmini yaratishga harakat qilganlar.

Germaniyada kundalik hayot tarixini shakllantirish jarayonida uning tarafdorlari o‘z raqiblarini chap qanot siyosiy g‘oyalar tarafdori sifatida ko‘rgan va kundalik hayot tarixini muqobil deb hisoblagan nufuzli tarixchilarning qattiq tanqidiga dosh berishga majbur bo‘ldilar. ratsionallik g‘oyasini inkor etuvchi va Evro-Atlantika tsivilizatsiyasining qadriyatlarini o‘zgartiradigan ijtimoiy fanlar tarixining yo‘nalishi. Buyuk Britaniya va Fransiyada, ayniqsa AQShda an’anaviy tarixchilarning kundalik hayot tarixiga munosabati ko‘proq xayrixoh edi. Ilmiy hamjamiyat, shu jumladan Germaniyada kundalik hayot tarixi tarix fanining ajralmas qismi ekanligini yakuniy tan olish faqat 1980-yillarning oxirida sodir bo‘lgan.

Bugungi kunda kundalik hayot tarixi doirasida ikkita yondashuv shakllangan. Birinchi yondashuv tarafdorlari “kundalik hayot” ni o‘rganib, uning “takrorlash elementlari”ga e’tibor berishadi. Ularning fikricha, aynan takrorlash va muntazamlik tufayli "odamlarning hokimiyatga bo‘ysunishi" va shunga mos ravishda ijtimoiy tuzilmalarning barqarorlashuvi sodir bo‘ladi. Ikkinchi yondashuv tarafdorlari “kundalik hayot” ni o‘rganishda, aksincha, „kundalik hayot“ ning o‘zgarishlarini qayta qurish orqali ochib berish uchun undagi o‘zgaruvchan va ichki qarama-qarshilikni aniqlashga yo‘naltiriladi: uning sub’ektlari – tarixiy jarayon tarix ob’ektiga aylandi yoki bo‘lishi mumkin va qanday qilib.

Kundalik hayot tarixi manbalarining asosini qadimiy matnlar tashkil etadi – cherkov metrik yozuvlari, tibbiyot muassasalarining hujjatlari, nikoh shartnomalari (shartnomalar) va boshqalar, shuningdek, kundalik narsalar, og‘zaki so‘rovlar materiallari. Bularning barchasi tarixiy tadqiqot mavzusini sezilarli darajada

kengaytiradi, shuningdek, tadqiqotchiga o‘zi o‘rganayotgan shaxs yoki guruhga (juda ko‘p emas) iloji boricha yaqinlashishga imkon beradi. Kundalik hayot tarixi tufayli, masalan, nemis tarixchilarining tadqiqotlari, bir vaqtning o‘zida inqilobdan oldingi Prussiyada keng tarqalgan jinoyatchilikning eng xilma-xil ko‘rinishlariga qaratilgan (D. Blazius. Burjua jamiyati va). Jinoyat, 1976), Ruhr ishchilarining hayoti va oilaviy hayoti (K. Tenfelde. XIX asrdagi Rur konchilarining ijtimoiy tarixi, 1977-yil), 18-asrning ikkinchi yarmida Bavariya, Shvabiya va Frankoniyadagi sarson va tilanchilar dunyosi (K. Kuchtcher. Ko‘chadagi odamlar, 1983) va boshqalar.

Kundalik hayot tarixi amaliy sotsiologiya, tarixiy demografiya, antropologiya, ijtimoiy psixologiya va madaniyatshunoslik usullaridan keng foydalanadi. Mikrotahlil usullaridan foydalanish tobora ommalashib bormoqda. Miqdoriy usullarning ahamiyati, ayniqsa, amerikalik tadqiqotchilarning ishlarida sezilarli darajada ortib borayotganligini ko‘rish mumkin.

Kundalik hayot tarixining tanqidchilari, birinchi navbatda, uning uslubiy, kontseptual va tahliliy imkoniyatlarining cheklanganligini ta’kidlaydilar (G. Veller va V. Mommsen), asosiy tarixshunoslik muammolariga e’tibor bermasligi, “umumiy tarix” tushunchasini inkor etishi va unda turli tematik tadqiqotlar natijalarini birlashtirish usullarining yo‘qligi. Xususan, tadqiqotchining tarix qahramonlariga imkon qadar yaqin bo‘lishi talabi tadqiqotchini o‘z tahliliga ayrim kishilarning o‘zlari haqidagi hikoyalarini keng jalb etishga undaydi, tahlilning o‘zini tushunish va talqinni almashtirish tahdidi bilan to‘la. Tadqiqotning nazariy va uslubiy asoslarini asoslashga etarlicha e’tibor berilmaganligi sababli, kundalik hayot tarixida empirizmning hukmronligi ushbu tendensiya tarafdorlari tomonidan mayda detallar bilan haddan tashqari yuklangan havaskor asarlarning yaratilishiga olib keladi.

**Tarix** (arabcha: التاريخ, *o‘tmish; davr, vaqt, era; sana*) – o‘tmish voqealar haqida axborot ochish, yig‘ish, tartiblashtirish va namoyish etish bilan shug‘ullanuvchi darslik. Tarix bilan shug‘ullanuvchi olimlar tarixchilar, deb ataladi. Tarix fani voqealar ketma-ketligini tahlil etadi, ularning sabab va

samaralarini tizimlashtiradi. Tarixchilar tarix tabiati va foydasi ustida bahs olib borishadi. Bunda ushbu fanning o‘zi ham o‘rganiladi va zamonaviy muammolarni uning yordamida hal qilishga uriniladi. Biror madaniyatga oid, biroq tashqi manbalarga asoslanmagan hikoyalar (masalan, Alpomish haqida asotirlar) tarixiy mavzu emas, balki madaniy meros sanaladi.

Tarix – 1) tabiat va jamiyatdagi har qanday rivojlanish jarayoni. Shu ma’noda olamning yaratilish tarixi, Yer tarixi, barcha fanlar tarixi va boshqa tushuniladi; 2) insoniyat va uning mahsuli bo‘lgan tamaddunlar rivoji, jamiyat va davlatlar o‘tmishi taraqqiyoti jarayonini o‘rganuvchi fan.

Tarix fani – insoniyatning butun o‘tmishi davomida jamiyat hayotida sodir bo‘lgan voqea-hodisalar, jarayonlarni (jamiyat rivojini) yaxlit bir tarzda o‘rganadi. Tarix fani ijtimoiy-gumanitar fanlar (falsafa, sotsiologiya, iqtisod, psixologiya, san’atshunoslik va boshqalar) tizimining tarkibiy qismi. Tarix fanining bu guruhdagi o‘rni uning tadqiqot predmeti va usullari bilan belgilanadi. Turli ijtimoiy va gumanitar fanlar jamiyat hayotining alohida jihatlarini o‘rgansa, tarix fanining tadqiqot ob’yekti – aholi, jamiyat, mamlakat, davlat hayotining o‘tmishi va hoziri haqidagi faktlarni yig‘ish, taxlil qilish, to‘plangan bilimlarni ma’lum bir tizimga solish va nazariy jihatdan umumlashtirishdir. Tarix fani o‘tmishda sodir bo‘lgan jarayon va hodisalar orasidagi o‘zaro bog‘liqlik, ularning ildizi, tarixni harakatlantiruvchi sabablar, uning mantig‘i va ma’nosini ko‘rish imkonini beradi. Ijtimoiy va gumanitar fanlar tarix tadqiqotlari natijalariga tayanadi. Fanlararo yondashuv jamiyat haqidagi yaxlit tasavvurni shakllantirib, o‘tmishni va hozirni anglash orqali jamiyat rivoji istiqbolini ko‘ra bilishdek muhim vazifani xal qiladi.

Tarix fanida, boshqa fanlarda bo‘lganidek, muqarrar ixtisoslashuv amalga oshmoqda. Hozirgi zamon tarix fani alohida bo‘limlar va sohalardan tashkil topgan bilimlar majmuidir. Ixtisoslashish darajasiga ko‘ra, ularni bir necha guruhga ajratish mumkin. Birinchi guruhni jamiyatning (jahon tarixi) butun va alohida tomonlarini o‘rganuvchi bo‘lim va sohalar tashkil qiladi. Insoniyat tarixining ayrim hodisalari alohida o‘rganiladi. Jahon tarixi ibtidoiy jamiyat tarixi, o‘rta asrlar tarixi, yangi va eng yangi tarixga bo‘linadi. Hududiy-geografik tamoyilga ko‘ra, tarixan

bir-biri bilan bog‘liq yirik regionlar (Yevropa va dunyoning boshqa qismlari, Qadimgi Sharq, O‘rta Osiyoning ba’zi regionlari) va alohida mamlakatlar hamda xalqlarga ajratiladi. Kompleks muammolarni tadqiq qilish bir guruh mamlakat va xalqlar tarixida ro‘y bergan bosqichiy davrlarni va hodisalarni (Uyg‘onish davri, Reformatsiya tarixi va boshqalar) o‘rganish zaruratidan kelib chiqadi. Jahon tarixiga global yondashuv bilan bir qatorda mikro tarix (shahar va qishloqlar, alohida shaxslar, kundalik maishiy turmush) ham o‘rganiladi. Tarixning alohida tomonlarini o‘rganish tarix fanining alohida sohalarini ajratishni taqozo qildi (mas., harbiy tarix, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, din, fan, xotinqizlar tarixi va tender tadqiqotlari, san’at, intellektual, madaniyat, diplomatiya tarixi va boshqalar).

Ikkinchi guruhni yordamchi va maxsus tarix fanlari tashkil qiladi. Ularni alohida tarix fanlariga ajratilishi va rivojlanishi tarix fanining xususiy tadqiqot usullarini ishlab chiqish zaruratidan kelib chiqadi. Antropologiya, arxeologiya, etnografiya mustaqil o‘ringa ega. Yordamchi tarix fanlariga – manbashunoslik, arxeografiya, paleografiya, geraldika, numizmatika kiradi. Maxsus guruh – boshqa fanlar ehtiyojidan kelib chiqadi (mas., tabiiy fanlar tarixi, texnika tarixi, davlat va huquq tarixi). Tarix fanining tarixini tarixshunoslik fani o‘rganadi.

**O‘zbekistonda tarix fani**

Tarix fani asrlar davomida qo‘lyozma asarlarda ifodalangan maishiy hayot, voqea-hodisalar, tarixiy personajlar va shaxslar haqida hikoya qilishdek oddiy bayonchilikdan, muayyantarixiy kontekstda tarixiy hayot yo‘lining shakllanishi, bosqichlari va umumiy qonuniyatlarini aniqlash, umumlashtirish, tahlil qilish va nazariy xulosalar chiqarish kabi murakkab ilmiy yo‘lni bosib o‘tdi.

O‘zbekistonning eng qadimgi tarixi haqida moddiy madaniyat yodgorliklari va arxeologik topilmalar ma’lumot beradi. Mil. av. I mingyillikka oid yozma manbalar, zardushtiylarning muqaddas Avsto kitobida, ahamoniylar davri kitoblarida (Behistun, Naqshi Rustam va boshqalar) Turon va Movarounnahrning tabiati, xalqlari haqida ma’lumotlar keltirilgan. O‘zbekistonning qadimgi tarixi haqida Gerodot, Ksenofont, Ktesiy, Polibiy, Diodor, Strabon, Kursiy Ruf, shuningdek, xitoy, arman, arab mualliflari yaratgan yozma manbalarda

ma’lumotlarni uchratish mumkin. Asrlar davomida O‘zbekiston siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, ma’naviy xayoti tarixi haqidagi ma’lumotlar saroy yilnomachilari, tarixchilar, xonlar, podshohlar tomonidan yozilgan qo‘lyozma manbalar shaklida jamlana bordi. O‘rta asrlar tarixnavisligida sulolaviy tarixga bag‘ishlangan Bayhaqiyning “Tarixi Bayhaqiy”, Nasaviyning “Siyrat as-Sulton Jalol ad-Din Mankburni”, Nizomiddin Shomiyning «Zafarnoma», Sharafuddin Ali Yazdiyning “Zafarnoma”, Fazlulloh ibn Ruzbexonning “Mehmonnomai Buxoro”, Hofiz Tanish Buxoriyning “Abdullanoma”, Muhammad Yusuf Munshiyning “Tarixi Muqimxoniy”, Muhammad Amin Buxoriyning “Ubaydullanoma” kabi asarlari yaratildi.

Ya’kubiyning «Kitob albuldon» («Mamlakatlar xaqida kitob»), Tabariyning «Tarixi Tabariy», Beruniyning «Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar»; ma’lum bir xudud tarixiga oid — mintaqaviy uslubdagi Narshaxiyning «Tarixi Buxoro», Nasafiyning «Kitob alqand fi tarixi Samarqand» («Samarqand tarixi haqida qanddek kitob») kabi nodir qo‘lyozma manbalarda O‘rta Osiyo mamlakatlarining geografik holati, yirik shaharlari va aholisi, ularning turmush tarzi va mashg‘ulotlari, karvon yo‘llari, urushlar, g‘alayonlar, ijtimoiyiqtisodiy, siyosiy hayotiga doir turli ma’lumotlar bayon etilgan.

O‘rta asrlar tarixshunosligida Amir Temur va temuriylar davri tarixi, ayniqsa, mufassal yoritilgan. Usha davrda yaratilgan «Temur tuzuklari», Nizomiddin Shomiyning «Zafarnoma», Sharafuddin Ali Yazdiyning «Zafarnoma»; Abdurazzoq Samarqandiyning «Matla’ us sa’dayn va majma’ ulbahrayn» («Ikki saodatli yulduzning chiqishi va ikki dengizning qo‘shilish o‘rni»); Mirxondning «Ravzat us-safo» asarlarida Amir Temur va temuriylar saltanatining tashkil topishi, ichki va tashqi siyosati, mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotiga oid muhim ma’lumotlar keltirilgan.

O‘rta asrlarda davlat ishlari, boshqaruv tizimi haqida ma’lumot beruvchi Forobiyning «Fozil odamlar shahri», Yusuf Xos Hojibning «Qutadg‘u bilig», Nizomulmulkning «Siyosatnoma», Xondamirning «Dastur al-vuzaro», Muhammad Boqirxonning «Muvazayi Jahongiriy» asarlari yaratildi.

O‘rta Osiyoda 3 ta mustaqil — Buxoro, Xiva va Qo‘qon xonliklari vujudga kelishi bilan, XVII—XIX asrlarda ularning tarixiga bag‘ishlab alohida-alohida asarlar yaratildi. O‘ziga xos uslub va an’analarga ega bo‘lgan tarixnavislik maktablari shakllandi. Buxoro va Xiva xonliklari tarixi Abulg‘oziy Bahodirxonning »Shajarayi turk» va «Shajarayi tarokima», Muhammad Amin Buxoriy, Muxammad Sharif, Mirzo Shams Buxoriy, Munis, Ogaxiy, Bayoniy asarlarida keng yoritilgan.

Muhammad Solih Toshkandiy, Muxammad Hakim, Avaz Muhammad, Niyoz Muhammad, Mulla Olim Maxdumhoji asarlarida Qo‘qon xonligi tarixi bayon etildi. Rossiya tomonidan O‘rta Osiyo yerlarining bosib olinishi arafasidagi voqealar, janglar tafsilotlari, Rossiyaning mustamlakachilik siyosati, XIX asrning ikkinchi yarmi — XX asr boshlarida Ahmad Donish, Mirzo Abdulazim Somiy Bo‘stoniy, Mirzo Salimbeklarning Buxoro tarixiga oid asarlarida keltiriladi. Ushbu asarlarda o‘rta asr tarixnavisligi an’analariga ko‘ra, siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy, ma’naviy hayot, tashqi aloqalarga oid ma’lumotlar garchi muayyan bir tartibda berilmagan bo‘lsada, jamiyat hayotining turli yo‘nalishlari bo‘yicha qimmatli ma’lumotlarni ko‘ramiz.

Bu qo‘lyozma tarixiy asarlar o‘z davrining ilg‘or fikrli kishilari tomonidan yozilgan bo‘lsada, o‘sha davrdagi hukmdorlar ra’yidan o‘tolmasdan, ularning manfaatlariga moye qilib yozilganligini, o‘z davri va muhiti, zamonasi tartiblari, taraqqiyot darajasi tafakkurining xos ko‘rinishlari ta’sirini namoyon qiladi.

XIX asrning 2-yarmidan boshlab Rossiyaning O‘rta Osiyoni bosib olishga qaratilgan siyosati tufayli Rossiya hukumatining maxsus topshirig‘ini bajarish uchun o‘lkaga kelgan rus harbiy mutaxassislari, diplomatlari, sayyohlari, savdogarlari o‘z memuarlari, sayohati xotiralari va hisobotlarida ushbu mamlakat va uning xalqlari tarixi, ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy ahvoli, moddiy boyliklariga oid ma’lumotlarni to‘plab, yozib qoldirdilar (mas., N. Muravyevning »Puteshestvie v Turkmeniyu i Xivu v 1819 i 1820 godax», 1822 / *(«1819 va 1820-yillarda Turkmaniston va Xivaga sayohat», 1822)*; Y. Meyendorfning »Puteshestvie iz Orenburga v Buxaru v 1820-21 godax», 1826 / (*"Orenburgdan Buxoroga 1820-21-*

*yillarda sayohat", 1826)*; N. N. Xanikovning »Opisanie buxarskogo xanstva», 1843 / *(«Buxoro xonligining tavsifi», 1843)*; N. I. Veselovskiyning »Ocherk istoriko-geograficheskix svedeniy o Xivinskom xanstve ot drevneyshix vremen do nastoyaщego», 1877 / *(«Xiva xonligi haqidagi tarixiy-geografik ma'lumotlarning qadim zamonlardan to hozirgi kungacha bo'lgan ocherki», 1877)*; Mixail Terentyevning 3 jildli «Istoriya zavoevaniya sredney Azii», 1906 / *(O'rta Osiyoni bosib olish tarixi), 1906*; D. Logofetning »Buxarskoe xanstvo pod russkim protektoratom», 1911 / *(«Buxoro xonligi rus himoyasi ostida») 1911*; va boshqalar).

O'rta Osiyo Rossiya mustamlakasiga aylantirilishi bilan mustamlakachilik tuzumi tartibotlari tarix sohasidagi i.tarixlar ko'lami va mavzusiga o'z ta'sirini ko'rsatdi. Rus tarixchilarining yuqorida zikr etilgan O'rta Osiyo, jumladan, O'zbekiston tarixiga oid asarlarining aksariyati o'zining bir yoqlamaligi, metropoliya manfaatlariga xizmat qilishga mo'ljallanganligi bilan ajralib turadi. Chor ma'muriyati i.tarixishlari manfaatlariga xizmat qilishini nazarda tutib, ma'lum miqdorda mablag' ajratdi. Ayni paytda ilg'or rus olimlari, sharqshunostarixchilarning fan manfaatlari uchun O'rta Osiyo tarixi tadqiqotlarini amalga oshirish tendensiyasini ham kuzatish mumkin. 1895-yilda Toshkentda Turkiston arxeologiya havaskorlari to'garagi tashkil etildi, u Oktyabr to'ntarishigacha faoliyat ko'rsatdi, tarix, arxeologiya, numizmatika, etn. masalalarini o'rganishga salmoqli hissa qo'shdi. Mahalliy millat vakillaridan sharqshunos havaskorlar, sharq qo'lyozmalarini to'plovchilar, qad. yodgorliklarni o'rganuvchilar yetishib chikdi: Abu Said Mahzum, Mirzo Abdurahmon, Akrom polvon Asqarov va boshqa Toshkent davlat kutubxonasining tashkil etilishi (1870), o'lkashunoslar va olimlar faoliyatida muhim turtki bo'ldi. Ushbu kutubxona fondidan bibliograf V.I.Mejov tomonidan tuzilgan O'rta Osiyo va Turkiston tarixiga oid maqolalar, asarlar, gazeta va jurnali materiallari to'plangan «Turkiston to'plami» (594 jilddan iborat) muhim joy oldi. O'zbekistonni tarixiymadaniy jihatdan o'rganishga Peterburg untining sharq fakulteti ma'lum hissa qo'shdi. Bu davrga kelib mahalliy tadqiqotchilar guruhi shakllandi. V.L.Vyatkin Samarqand

yodgorliklarini o‘rganish jarayonida Ulug‘bek rasadxonasini ochdi. V.V.Bartold qad. qo‘lyozmalar ma’lumotlaridan foydalanib, O‘rta Osiyo va O‘zbekiston tarixi haqida asarlar yaratdi («Turkestan v epoxu mongolskogo nashestviya», 1898—1900; «Svedeniya ob Aralskom more i nizovyax Amudari s drevneyshix vremyon do XVII veka», 1902; «K istorii orosheniya Turkestana» va boshqalar).

XX asrning boshida milliy davriy matbuot «Sadoi Fartna», «Sadoi Turkiston», «Oyna», «Najot», «Hurriyat» sahifalarida O‘zbekiston tarixi muammolariga oid ilk makrlalar e’lon qilina boshladi. Bu maqolalar mualliflari jadidchilik harakati namoyandalari bo‘lib, ular mamlakat rivoji, millatning taraqqiysi, o‘zlikni anglashda tarix fanining roliga alohida e’tibor qaratdilar. Xususan, Mahmudxo‘ja Behbudiy faoliyatida tarix muammolarini o‘rganish muhim ahamiyat kasb etdi. Behbudiy komil inson bo‘lib yetishishda va jamiyatni boshqarishda tarix fanining o‘rni beqiyosligini ta’kidlaydi. U “Tarix va jug‘rofiya”, «Turkiston tarixi», «Sart so‘zi majhuldir» kabi asarlarida faqatgina Vatan tarixini emas, Yevropa va jahon mamlakatlari tarixini bilish zarurligi haqida so‘z yuritadi. Uning «Moziy istiqbolning tarozisidir», degan xitobi tarix tajribasida o‘zining hakligini isbotladi. Behbudiyning tarixiyilmiy qarashlari O‘zbekiston tarixini va uni yaratish yo‘lida o‘ziga xos ilmiy dasturdir.

Oktyabr to‘ntarishi amalga oshishi bilan, Sovet tuzumining mohiyatidan kelib chiqqan holda, unga xos bo‘lgan i.tarixning tashkil etishning shakl va usullarini, maqsad va vazifalarini, metodologiyasini ishlab chiqish ilgari suriddi. Kommunistik partiya mafkurasi asosiy e’tiborni partiya tarixi yo‘nalishiga qaratdi, tarixiy izlanish maktablari yo‘q qilib tashlandi, tarix fanini jadallik bilan siyosatlashtirish va g‘oyalashtirish jarayoni yuz berdi, uslubiyatda «sinfiylik» «bir xillik» tamoyili yuzaga kelib «tarixni sinfning o‘zi yaratadi» degan qoida qaror topdi.

Totalitar tuzum ziddiyatlariga qaramasdan, shunday murakkab sharoitda oliy ta’lim tizimida tarix ta’limotining vujudga kelishi bilan mutaxassis tarixchi kadrlar tayyorlana boshlandi. Tarix fanining tashkiliy asoslari mustahkamlandi. O‘rta

Osiyo davlat unti, Samarqanddagi oliy ped. institutida ko‘lyozma kitoblar, vaqfnomalar va vasiqalar yig‘ilib, ilmiy talqin qilindi.

Tarix fani rivojiga Abdurauf Fitrat salmoqli hissa qushdi. O‘zbekistonda agrar sug‘orish tarixiga oid bir qancha vaqf hujjatlarini nashr k, ildi(mas, Tri dokumenta po agrarnomu voprosu v Sredney Azii, L., 1933; Kaziyskiye dokumento‘ XVI veka, tarix, 1937).

O‘zbekistonda tarix fanining rivojida prof. Bulat Soliyevning o‘rni alohida. Bulat Soliyev milliy tarix bo‘yicha umumlashgan asar yaratishga uringan ilk tadqiqotchi edi. U qad., o‘rta asr, zamonaviy tarixchilarning turli xil va ko‘plab asarlarini, sharq qo‘lyozmalari ma’lumotlarini jamlab, ulardan tanqidiy foydalanib, «O‘zbekiston tarixi. XV— XIX ayerning birinchi yarmi», «Buxoro mang‘itlar sulolasi davrida» (1926), «O‘rta Osiyo tarixi», «O‘rta Osiyoda savdo kapitali» kitoblarini yezdi. Afsuski, uning asarlarining aksariyati NKVD tomonidan yoqib yuborilgan, uning o‘zi ham O‘zbekiston ilg‘or milliy ziyolilarining katta qismi qatorida stalincha qatag‘on siyosati qurboni bo‘ldi. Bu siyosat tarix fanining rivojlanishiga, albatta, salbiy ta’sir ko‘rsatdi. Ko‘pgina tarixchilar qatag‘on qilinganligiga qaramay, 40-60-yillar tarix fanida ma’lum yutuklar yuzaga keldi.

1943-yilda SSSR FAning O‘zbekiston filiali Til, adabiyot va tarix instituti negizida Tarix institutining tashkil etilishi tarix fani rivojida muayyan bosqich bo‘ldi, tadqiqotlarni ma’lum ilmiy yo‘nalishlar va reja asosida amalga oshirish yo‘lga ko‘yildi. Mutaxassis ilmiy kadrlar tayyorlash muhim ahamiyatga ega bo‘ldi. Keyinchalik Tarix va arxeologiya instituti tarixiy tadqiqotlar bo‘yicha ilmiy markazga aylandi. Bu institutning tashkil topishi, O‘zbekiston arxeologiyasi va tarix fani rivojida 1o‘zbek mutaxassisarxeologi Ya. G‘ulomovning o‘rni alohidadir. Ya. G‘ulomov eng qad. davrlardan O‘zbekistonda sug‘orma deqqonchilik madaniyatining shakllanishi va rivojlanishida irrigatsiyaning ahamiyati; ilk shaharlarning vujudga kelishi va shaharsozlik madaniyatining taraqqiyoti tarixi, o‘rta asrlarda O‘zbekistonning ijtimoiyiqtisodiy taraqqiyoti muammolari, qo‘shni mamlakatlar bilan aloqalari tarixini tadqiq qildi (mas., «Xorazmning sug‘orish tarixi qadimgi zamonlardan hozirgacha», tarix, 1957,

1959). Ya. G‘ulomov ko‘pgina ilmiy nashrlarga mas’ul muharrirlik xam qildi, u shogirdlar tayyorlab, o‘z ilmiy maktabini yaratdi.

Tarix instituti tashkil etilgan dastlabki-yillardanoq O‘zbekiston tarixini yaxlit bir tarzda mujassamlashtirgan ko‘p jildlik kitob yaratish ishlari boshlangan edi. Bu ish 1947-yil yakunlanib, 2 jildli «O‘zbekiston xalklari tarixi» kitobi nashr etildi.

XX asrning 50-80-yillarida O‘zbekistonning o‘rta asrlardagi siyosiy hayoti, ijtimoiyiqtisodiy munosabatlar, yer va undan foydalanish, agrar munosabatlar, sun’iy sug‘orish tizimi tarixi haqida qo‘lyozma asarlar, hujjatli manbalar, arxeologik va etn. ma’lumotlar asosida yozilgan monografik tadqiqotlar vujudga keldi. Tarix fanining bu yo‘nalishini o‘rganishga A.A. Semyonov, Y.G‘ulomov, S. Azimjonova, A.Asqarov, M.Abduraimov, R.G. Mukminova, O.Chexovich, A.Muhammadjonovlar salmoqli hissa qo‘shdilar.

Bu davrda Rossiyaning O‘rta Osiyodagi mustamlakachiligi tarixini o‘rganishda Sovet mafkurasi rasmiy andozalaridan chetga chiqishga yo‘l berilmadi, tarix fani nihoyatda siyosiylashtirilib, ilmiytarixiy tafakkur hukmron mafkura nazorati ostida bo‘lganligi tufayli juda ko‘p masalalarning asl mohiyatini ko‘rsatib berish imkoni bo‘lmadi, natijada tarixni soxtalashtirish kuchayib ketdi. 1958-yilda bo‘lib o‘tgan «O‘rta Osiyoni Rossiyaga qo‘shib olishning progressiv ahamiyati». mavzusidagi birlashgan ilmiy sessiyada O‘rta Osiyoning Rossiya imperiyasiga «ixtiyoriy qo‘shilish»i haqidagi uydirma fanga zo‘rlik bilan kiritildi. Bu mavzu tarixi bilan shug‘ullangan tadqiqotchilarning muammoni xolisona, haqqoniy yoritish imkoniyatlari cheklab qo‘yildi. Biroq bunday cheklashlarga qaramay, Rossiya imperiyasi mustamlakachiligi davridagi ijtimoiyiqtisodiy hayot, boshqaruv tizimi, mustamlakachilik zulmi hamda unga qarshi qaratilgan milliy ozodlik harakatlari kabi masalalarga doir ko‘pgina arxiv materiallari o‘rganildi va ilmiy iste’molga kiritildi.

tarix fanida Sovet davri tarixini o‘rganish ham hukmron mafkura manfaatlariga moslashtirilganligi sababli, O‘zbekistonda 1917-yilda Sovet hokimiyatining o‘rnatilishi, uning o‘lkadagi siyosati, mahalliy aholining Sovet

hokimiyatiga munosabati va unga qarshi kurashlari, bolsheviklarning amalga oshirgan ijtimoiyiqtisodiy tadbirlari va ularning oqibatlari, madaniyat sohasidagi siyosat, kolxozlashtirish tarixi kabi masalalarning mohiyati haqqrniy yoritilmadi. «Partiyaning rahbarlik va yaratuvchilik roli»ni koʻrsatish tarix fanining eng muhim vazifasi deb belgilandi. Bunday yondashuv asosida yaratilgan tadqiqotlar Sovet hokimiyati siyosatini ulugʻlash maqsadlariga xizmat qildi. Sovet mafkurasining tazyiqiga, davr ziddiyatlariga qaramay, tarixchilar tomonidan juda koʻplab arxiv manbalarining ilmiy talqinini mujassamlashtirgan, jumladan, 4 jildli «Oʻzbekiston tarixi» (1967—70-yillar), 1 jildli «Oʻzbekiston tarixi» monografiyalari; Toshkent, Samarkand, Qoʻqon, Andijon, Xiva va Buxoro sh.larining eng qad. davrlaridan to XX asr oʻrtalarigacha boʻlgan tarixiga bagishlangan ilk fundamental asarlar tayyorlandi. Ular Oʻzbekistonning qad. shaharlari tarixini umumlashtirilgan tarzda aks ettirgan tadqiqotlar sifatida qimmatlvdir.

80-ylarning oxiridagi oshkoralik jarayoni tarix fani sohasida taqiklangan, notoʻgʻri talqin qilingan muammolar atrofida munozara, yangi fikrlarni ilgari surish va tadqiqot olib borish imkoniyatini vujudga keltirdi. Tarix fanining eng dolzarb muammolari, ularni tadqiq qilish usuli va yondashuvlarini aniklab berishga qaratilgan ilmiy anjumanlar tashkil qilindi. Bu davrga kelib Vatan tarixi ning koʻplab yetilgan masalalariga yangicha baho berildi: ilgari «bosmachilik» deb atalgan milliy ozoddik harakatlari, Oʻrta Osiyoning Rossiyaga «qoʻshib olingan»ligi toʻgʻrisida qizgʻin bahsmunozaralar boʻlib oʻtdi; Oʻzbekistondagi jamoalashtirish va sanoatlashtirish tarixi qaytadan koʻrib chiqila boshladi.

Oʻzbekiston Respublikasi davlat mustaqilligiga erishgach, tarix fani sovet mafkurasi va uning goyaviy qoliplaridan ozod boʻldi. Jamiyat hayotida amalga oshayotgan muhim ijtimoiy jarayonlar tarix fani oldiga oʻzbek xalqining haqqoniy tarixini yaratish, taraqqiyotning turli bosqichlarida jahon hamjamiyatida uning oʻrni va rolini aniqlash, tarixiy bilimlarni ommalashtirish va targib qilish orqali millatning maʼnaviyaxloqiy qadriyatlari, madaniyati, qad. anʼanalariga qaytish vazifalarini qoʻydi.

90y.larning o‘rtalariga qadar tarix bo‘yicha yangi nazariy yendashuvlar asosida bir qator maktab darsliklari tayyorlandi, 7 jildga mo‘ljallangan O‘zbekiston tarixining 3jildi, K.Shoniyozov, R. Aminova kabi tadqikrtchilarning monografiyalari e’lon qilindi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi 1996-yilda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat va jamiyat qurilishi akademiyasi huzurida «O‘zbekistonning yangi tarixi» markazini tashkil etish haqida qaror qabul qildi. Mazkur markazda mamlakatimizning yetakchi olimlari ishtirokida 3 jildli «O‘zbekiston tarixi» (Turkistonning Rossiya tomonidan istilo qilinishidan qoz. davrgacha) tayyorlandi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining «O‘zbekiston FA Tarix instituta faoliyatini takomillashtirish» haqidagi 1998-yil iyul qarori tarix fanining vazifalarini strategik jihatdan o‘zgartirdi. Tarix instituti respublikada tarix tadqiqotlarini muvofiklashtiruvchi chinakam markaz maqomiga ko‘tarildi. Institutda o‘z atrofiga mamlakat tarixchilarini birlashtirib, ularning sa’yharakatlari bilan mustaqil davlat ehtiyojlariga moye yangi yo‘nalishlar zaruriyatidan kelib chiqqan O‘zbekiston tarixiga oid tadqiqotlarni ma’lum bir tizimga soluvchi «O‘zbek xalqi va uning davlatchiligi tarixi» konsepsiyasi ishlab chiqildi. Mamlakatda tarix fani sohasidagi i.tarix lar ushbu konsepsiya doirasida amalga oshirilmoqda. Bu borada I. Karimovning tarixchi olimlar va jurnalistlar bilan uchrashuvida bayon etgan «Tarixiy xotirasiz kelajak yo‘q» asari mug‘im rol o‘ynadi. Unda prezidentimiz: «…tarixchilarimiz millatga uning haqqoniy tarixini ko‘rsatib, isbotlab berishlari kerak. Zotan, tarix — xalq ma’naviyatining asosidir; … biz haqqoniy tariximizni tiklashimiz, xalqimizni, millatimizni ana shu tarix bilan qurollantirishimiz zarur», deb ta’kidlab, tarixchi.par oldiga anik, vazifalarni qo‘ydi.

Sovet davrida o‘rganish taqiqlangan, noto‘g‘ri talqin etilgan mavzular ilmiy xolislik asosida — milliy mustaqillik nuqtai nazaridan qaytadan o‘rganildi. Yangi SH1miy yo‘nalishlar tadqiq qilindi.

O‘zbek xalqining etnogenezi va etnik tarixini o‘rganish bugungi kunda tarix fanining eng muhim muammosidir. O‘zbek xalqi shakllanishining asosiy bosqichlari, ularning etnogenetik jarayonlarda qatnashuv darajasi, mintaqaning qadim avtoxton axoliyey bilan tarixiy vorisiyligi va genetik aloqalarini o‘rganishda K. Shoniyozovning «O‘zbek xalqining shakllanish jarayoni» (tarix, 2001) monografiyasi ilk qadam bo‘ldi.

O‘zbek xalqi va uning davlatchiligi tarixiga bag‘ishlangan «O‘zbekiston davlatchiligi tarixi ocherklari»(tarix, 2001) kitobi (o‘zbek va rus tillarida) yangi ilmiy yo‘nalishdagi ishlarning natijasi bo‘ldi.

Ma’lumki, sovet davrida Respublikada davlatchilik terminini ishlatish ham mumkin emas edi. Mustaqillikdan keyin O‘zbekiston davlatchiligi tarixining eng kadimdan to hozirgacha bo‘lgan manzarasini aks ettirgan asarlar vujudga keldi (mas., Shoniyozov K., «Qarluq davlati va qarluqlar. O‘zbek davlatchiligi tarixidan», tarix, 1999; Azamat Ziyo, «O‘zbek davlatchiligi tarixi», T, 2000; A’zamxo‘jayev S, «Turkiston muxtoriyati. Milliydemokratik davlatchilik qurilishi tajribasi», tarix, 2000).

Qad. yozma manbalar talqinini amalga oshirish O‘zbekistonning eng qad. tarixini o‘rganishda muhim ahamiyatga ega. Bu sohada jiddiy tadqiqotlar amalga oshirildi («Qadimgi yozma yodgorliklar», A. Qayumov, M. Ishoqov, A. Otaxo‘jayev va boshqa, tarix, 2000; Avesto Yasht kitobi, tarix, 2001).

O‘zbekistonning qad. davri moddiy madaniyati haqidagi asarlar yangi faktlar, dalilfarazlar va yangi xulosalarni takdim qildi. O‘rta asrlar tarixini o‘rganishga doir ishlar o‘tgan tarixshunoslik bosqichlaridagi kamchiliklarni to‘ldirmoqda (mas., Sulaymonov R., «Drevniy Naxshab», tarix, 2000; Naselennie punkto‘ Buxarskogo emirata (A. Muhammadjonov taxriri ostida), tarix, 1999; Anorboyev A., Islomov U., Matboboyev B., «O‘zbekiston tarixida qadimgi Farg‘ona», tarix, 2001; Mukminova R., Filanovich M., «Tashkent na perekryostke istorii. Ocherki drevney i srednevekovoy istorii goroda», tarix, 2001; Karimov E., «Yasaviya i xodjagannakshbandiya: istoriya deystvitelnaya i vimishlennaya», tarix,

2000; A’zamova G., «So‘nggi o‘rta asrlar O‘rta Osiyo shaharlarida hunarmandchilik va savdo», tarix, 2000).

Amir Temur va temuriylar davri tarixi faol, kompleks tadqiq qilingan muammolardan biri bo‘ldi. 1996-yilda Amir Temur yubileyining 660-yilligining nishonlanishi bu mavzuga doir tadqiqotlarning yanada kengayishida, Amir Temur shaxsi haqidagi tarixiy haqiqatni tiklashda muhim voqea bo‘ldi. Respublika tarixchilari tomonidan mazkur mavzuga oid monografik, kollektiv tadqiqotlar, aloxdsa jihatlari tarixini o‘rganishga bag‘ishlangan maqolalar e’lon qilindi.

Rossiyaning O‘rta Osiyodagi mustamlakachiligi va uning salbiy oqibatlari haqida maxfiy arxivlar, yangi tarixiy dalillar, tamomila yangicha yendashuvlar asosida yozilgan asarlar va maqolalar vujudga keldi (H. Ziyoyev, «Turkistonda Rossiya tajovuzi va hukmronligiga qarshi kurash». XVIII— XX asr boshlari, tarix, 1998).

XX asrdagi ma’rifatparvarlik xarakati — jadidchilik mohiyatini o‘rganish tarix tadqiqotlarida yangi yo‘nalish bo‘ldi. Jadidchilikning siyosiy, ijtimoiyiqtisodiy zamini, jadidlarning ma’rifatparvarlik va islohotchilik g‘oyalari, mustaqillik va taraqqiyot uchun kurashlari tarixi, jadidlar tafakkuri, milliy davlatchilik g‘oyalari yangi ilmiy dalillar asosida nazariy mushohada qilindi (Alimova D., Rashidova D., «Mahmudxo‘ja Behbudiy va uning tarixiy tafakkuri», tarix, i 1999 va boshqalar).

O‘lkada milliy ozodlik harakatlari, mustaqillik uchun kurash tarixini yorituvchi jiddiy tadqiqotlar yaratildi. Mualliflar boy arxiv manbalarga tayanib, o‘lkadagi milliy ozodlik harakatining paydo bo‘lishi, rivojlanishi va mag‘lubiyatga uchrashi sabablarini keng ilmiy tahlil qildilar. Mavzu tadqiqotlariga xorij tarixshunosligi ham jalb qilindi, ular taxliliga xolislik mezoni asosida yondashildi. «Bosmachilik» harakatining asl mohiyatini aniklash, istiklolchilik harakati tarixini davrlashtirishga urindilar [mas., «Turkestan v nachale XX veka; k istorii istokov natsionalnoy nezavisimosti», tarix, 2000; Ziyoyeva D., «Turkiston milliy ozodlik harakati», tarix, 2000; Rajabov K,., «Buxoroga kizil armiya bosqini va unga karshi kurash: tarix haqiqati (1920—24-yillar)», tarix, 2002].

Sovet totalitar tuzumining asl mohiyati, siyosiy va mafkuraviy tazyiq oqibatlari ilmiy xolislik bilan tadqiq etilmoqda. Oktarix to‘ntarishi tufayli zo‘rlik bilan Sovet davlatining tuzilishi, O‘rta Osiyoda o‘tkazilgan milliyhududiy chegaralanishning nokrnuniyligi va uning salbiy oqibatlari, 30—50y.lardagi qatag‘onlar, majburiy jamoalashtirish natijasida qishloq xo‘jaligining izdan chiqishi, 80y.lardagi yangi qatagonlar — «o‘zbeklar ishi» mavzulari yangi arxiv ma’lumotlari asosida o‘rganiddi (mas., Alimova D., Golovanov A., «O‘zbekiston mustabid sovet tuzumi davrida: siyosiy va mafkuraviy tazyiq oqibatlari». Tarix, 2000; «Tarix shohidligi va saboklari. Chorizm va sovet mustamlakachiligi davrida O‘zbekiston milliy boyliklarining o‘zlashtirilishi», tarix, 2001; Shamsutdinov R., Qishloq fojeasi. Tarix, 2003 va boshqalar). O‘zbekiston Respublikasi mustakillik davri tarixi masalalarini tarixiy nuqtai nazardan o‘rganuvchi ilk tadqiqotlar vujudga keldi («Mustaqil O‘zbekiston tarixining dastlabki sahifalari», Davriy to‘plam, № 3, tarix, 2000; «Mustaqil O‘zbekiston taraqqiyotining g‘oyaviy asoslari», tarix, 2001).

Hozir O‘zbekistonning eng qad. davrlaridan boshlab to bugungi kunga kadar davrini qamrab oluvchi ko‘p jildli fundamental tadqiqot ustida ish olib borilmoqda. Mustaqillikning asosini mustahkamlashda jamiyat tarixiy ongini hakllantirish zarurligi e’tiborga olinib, tarixiy bilimlarni targ‘ib qilish yo‘lga qo‘yildi. Mustakillik davrida O‘zbekiston tarixchilarining maxsus «O‘zbekiston tarixi» jurnaliga asos solindi (1998). Tarix fanining eng dolzarb muammolarini muhokama etuvchi Yahyo G‘ulomov nomidagi «O‘zbek xalqi va uning davlatchiligi tarixi» respublika muntazam ilmiy seminari tashkil etiddi. O‘zbekiston Respublikasi tarixchilar jamiyati tuziddi (1999). Ilk marotaba «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»ga ko‘ra, tarix fanining ta’lim tizimi bilan hamkorligi amaliyeti yo‘lga qo‘yildi. Fan va ta’lim mushtarakligi maktab partasidan boshlab, tarixchi kadrlar tayyorlashga yo‘naltirilgan. Mustakillik-yillarida tarixchilarning xalqaro ilmiy hamkorligining keng imkoniyatlari vujudga keldi. O‘zbekiston tarix fanining aktual muammolari bo‘yicha ilmiy anjumanlar o‘tkaziladigan markazga aylanib bormoqda. O‘zbek olimlari xalqaro grantlarda,

YUNESKO tomonidan nashr etilayotgan «Markaziy Osiyo sivilizatsiyalari tarixi» nomli koʻp jildlik asarni tayyorlashda ishtirok etmoqdalar.

**2-Mavzu: Yangi va eng yangi davrda ijtimoiy hayot (2 soat ma'ruza)**

**Reja:**

1. Yangi davr tarixi, oʻziga xos xususiyatlari va ijtimoiy munosabatlarning oʻzgarib borishi.

2. Chor Rossiyasi va sovet hukmronligi davrida ijtimoiy hayot.

3. Mustaqillik yillarida ijtimoiy hayot koʻrsatkichlarining oʻzgarib borishi.

4. BMTning Oʻzbekiston bilan ijtimoiy hayot masalalari boʻyicha hamkorlik masalalari.

Yangi davr (yaqin tarix, yangi tarix) - jahon tarixining taxminan 1917/18 yildan to hozirgi kungacha boʻlgan tarixiy davrni tavsiflovchi qismi. Tarix fanida hozirgi zamonning quyi xronologik chegarasi (ya'ni boshlanish sanasi) haqida ham, jahon tarixini davrlashtirishda hozirgi zamonning oʻrni haqida ham turlicha qarashlar mavjud . Ba'zi tarixchilar yaqin (zamonaviy) tarixni soʻnggi yangi qismi boshqa bir qismi esa yaqin tarixni erta yangi va soʻnggi yangi davrlar bilan bir qatorda mustaqil tarixiy davr deb hisoblaydi. Ingliz tilida soʻzlashuvchi tarix fanida „*zamonaviy tarix*“ atamasi (inglizcha: *contemporary history*) kamida XIX asr boshidan beri qoʻllanila boshlandi, lekin hozirda asosan 1945-yildan keyingi davrga nisbatan qoʻllaniladi. Nemis tilidagi adabiyotda “zamonaviy tarix” tushunchasi (nemischa: *Zeitgeschichte*). Ikkinchi jahon urushidan keyin darhol paydo boʻlgan va dastlab XX asr boshlari davriga nisbatan qoʻllanilgan, ammo 1945-yil hozirgi vaqtda zamonaviy tarixning boshlanishi hisoblanadi. Rus tilidagi tarixiy adabiyotda „*yaqin tarix*“ atamasi XIX asrdan boshlab , fransuz inqilobi bilan boshlangan tarixiy davrga nisbatan qoʻllanila boshlandi. Xuddi shu davrlashtirishni zamonaviy fransuz tarixchilari “zamonaviy davr” (fransuzcha: *époque contemporaine*) fransuz inqilobi va Napoleon urushlaridan.

Sovet tarixshunosligida “yaqin tarix” atamasi Rossiyada Oktyabr inqilobidan keyingi tarixiy davrga nisbatan qo‘llanilgan. Zamonaviy rus tarixiy adabiyotida “zamonaviy davr” ning boshlanishi XIX-XX asrlar boshiga yoki Birinchi jahon urushining yakuniy davriga (1917-1918) to‘g‘ri keladi.

Bu davrda aholining ijtimoiy hayotda jadidchilik harakati alohida o‘rin tutadi. Jumladan, milliy g‘oya uchun kurash ma’rifatchilik, madaniyatni rivojlantirish, milliy qadriyatlar hamda an’analarni saqlab qolish shaklida namoyon bo‘ldi va bu harakat jadidchilik nomini oldi. “Jadid” arabcha so‘z bo‘lib, “yangi usul” ma’nosini anglatadi. Jadidlar “tovushli usul”ni qo‘llashdi, bunda alifboning har bir harfiga muayyan tovush muvofiq kelgan bo‘lib, shu tufayli o‘zlashtirish tezligi ancha oshar edi. Rossiya imperiyasi amaldorlari va mahalliy hukmdorlar zulmi ostida ikki yoqlama ezilgan Turkiston aholisining og‘ir ijtimoiy-siyosiy ahvoli, madaniy va iqtisodiyjihatdan qoloqligi, mazkur ahvoldan qutilish yoilarini izlash jadidlar faoliyatining asosiy harakatlantiruvchi omili bo‘ldi. Savdo munosabatlarining rivojlanishi natijasida ko‘plab davlat muassasalari xodimlariga va maktab o‘qituvchilariga talab oshdi. Jadidchilik tez orada butun O‘rta Osiyo hududida keng islohotchilik ha-rakatiga aylandi. U dastavval madaniy-ma’rifiy harakat sifatida rivojlandi va uning bosh maqsadi xalqning madaniy saviyasini yuksaltirish yo‘llaridan biri bo‘lgan ma’rifatchilik edi. Ma’rifatchilik XVIII-XIX asrlarda yuzaga kelgan, bashariyat boshiga tushadigan ofatning haqiqiy sabablari jaholat, madaniyasizlik va diniy mutaassiblik deb hi-soblaydigan e’tiqodga asoslangan g‘oyaviy oqimdir. Ma’rifatparvarlar inson erkinligi va fuqarolik huquqlari uchun kurashganlar. Fransiyada Volter, Sh. Monteskye, J.J. Russo, Angliyada J. Lokk, J. Kollinz va boshqalar taniqli ma’rifatparvarlar hisoblanar edi.

Jadidlar xalqni ma’rifatli qilish, madaniyatini I yuksaltirishning o‘zi yetarli emasligini, xalq o‘z kuchiga, imkoniyatlariga ishonch hosil qilishi zarurligini yaxshi tushunishardi. Ularning ma’rifatparvarlik faoliyati sof ma’rifat doirasidan chiqib, zulmga va inson qadr-qimmatini kamsitilishiga qarshi faol kurash olib bordilar. Ular demokratik o‘zgarishlar uchun kurasha boshladilar va mamlakatda liberal-demokratik harakat asoschilariga aylandilar. Jadidlar o‘zlarining barcha

da'atlari va shiorlari xalq ongidan joy olmas ekan, ular qabul qilinmasligini va kishilar hayotini o'zgartira olmasligini tushunardilar. Ular o'z g'oyalari va qarashlarini targ'ib qilishning eng sa-marali yo'lini topishdi-milliy teatr tashkil etildi. 1911-1913-yillarda Turkistonning turli shaharlarida ular tomonidan ochilgan teatrlar jadidlar mafkurasini targ'ib qilishning juda qudratli ommaviy vositasiga aylandi. Aholining savodxonlik darajasi past bo'lgan sharoitda sahnadan jaranglagan og'zaki nutq va aktyorlarning harakati jadidlar mafkurasining xalq qalbiga kirib borishiga imkon berdi. Ular mustamlakachi ma'muriyat senzurasidan va ruhoniylarning hushyor nazaridan qochib, o'zbek tilining serma'noligidan mahorat bilan foydalangan so'fiylarning o'ziga xos tilidan foydalanishdi.

Xalqqa manzur bo'lgan "Padarkush" pyesasini harakat yetakchisi M. Beh-budiy yozgan edi. Uning pyesasida har qanday yoi bilan boyishga intilishning salbiy ta'siri ishonarli ravishda ochib berildi, yot madaniyatning farzandlar bilan ota-onalar munosabatiga salbiy ta'siri ko'rsatildi. Jadidlarning pyesalarida kishilarni behuda o'tgan baxsiz hayoti, ayollar va bolalarning huquqlari buzilishi to'g'risida so'z borardi.

1911-yildan 1917-yilgacha jadidlar teatrlarida 25 ga yaqin pyesa qo'yilib, ular butun Turkistonda shuhrat topdi. Spektakllar bepul namoyish etilar va ko'plab kishilar tomosha qilardilar. Ularning ko'pchiligi uchun teatr ilk madaniy manba va dastlabki siyosiy maktab bo'lib qoldi. Jadidlar o'zbek xalqining buyuk murabbiyiga aylandi.Jadidlar o'zbek xalqi uchun o'z ijtimoiy, siyosiy va iqtisodiy asoslariga ega bo'lgan yangi o'zbek davlatmi barpo etishga yo'l ochib beruvchi milliy g'oyani shakllantirdilar. Jadidlar o'zbek xalqi ijtimoiy tafakkurida qaror topgan ko'p asrlik insonparvarlik, erksevarlik va adolat g'oyalarining ulug' davomchilari edi. Jadidlar Turkistonni xususiy mulk davlat himoyasida bo'lgan, qonun bilan kafolatlangan ozod va mustaqil davlatga aylanishini, har qanday dinga hurmat nazari bilan qaraydigan va o'z xalqini erkin rivojlanishi uchun sharoit yaratuvchi davlat bo'lishini, Turkistonni yuksak taraqqiy etgan Yevropa va Osiyo davlatlari qatoridagi davlat sifatida ko'rishni istadilar.

Rossiyada 1905-1907-yillarda va 1917-yil fevralida boiib o'tgan

inqiloblardan keyin Turkiston jadidlari davom etayotgan mustamlaka qaramligi sharoitida o‘lkaning ma’naviy va milliy uyg‘onishiga erishish imkoniyati yo‘qligini anglab yetdilar. Abdulqodir Shukuriy, Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abdulla Avloniy, Munavvar Qori va boshqalar kuch-g‘ayratlarini o‘z islohotchilik g‘oyalarini aholi orasida targ‘ib etishga qaratishdi. Qattiqqo‘l senzuraga qaramasdan, ular o‘z gazeta va jurnallarini nashr eta boshladilar. Turkistondajadidlarning “Taraqqiy”, “Shuhrat”, “Xurshid”, “Sadoi Turkiston”, “Samarqand”, “Oyina”, “Turon”, “Buxoroi sharif, “Sadoi Farg‘ona” va boshqa gazeta va jurnallari nashr etila boshlandi.

1906-yil 27-iyunda Ismoil Obidov tahriri ostida “Taraqqiy” gazetasining birinchi soni chiqdi. Bu kun o‘zbekiston Respublikasida Matbuotchilar kuni sifatida nishonlanadi.

Ana shu nashrlarda jadidlar jahonda va Turkiston hududida ro‘y berayotgan voqealar haqida hikoya qilib borishdi. o‘z g‘oyalari mazmunini va ularni keng yoyish zarur ekanligini tushuntirib berishdi. Yangiusul maktablarining milliy mutaxassislar tayyorlash, bolalarni o‘qitishdagi ahamiyatini ko‘rsatib berdilar. Ko‘pgina maqolalar o‘lkada va xorijda savdo-sotiq, sanoat va qishloq xo‘jaligi rivojlanishi qiyosiy tahliliga bag‘ishlangan edi. Senzura sababli mavjud tuzumdan norozilikni oshkora ifodalash imkoniyatiga ega bo‘lmagan jadidlar xalq ommasi og‘ir ahvolining haqiqiy aybdorlari-mustamlakachi ma’muriyat va o‘z hukmdorlari basharasini ko‘rsatib berishga harakat qilishdi. Jadidlarning milliy va siyosiy ongni yuksaltirish borasidagi sa’y-harakatlari xalq ommasiga katta ta’sir o‘tkazdi. Biroq podsho senzurasi jadidlar tomonidan nashr etiladigan bosma nashrlarni diqqat bilan kuzatar, siyosat va ozodlik kurashi to‘g‘risidagi maqolalar chiqishiga yo‘l qo‘ymasdi. Siyosiy erkinlik haqida fikr bildirishga boigan har qanday urinish gazeta yoki jurnalning zudlik bilan yopilishiga olib kelardi.

Mahmudxo‘ja Behbudiy madrasa mudarrisi oilasida dunyoga keldi. Avval maktabda so‘ng madrasada ta’lim olgan. U arab va fors tillarini yaxshi o‘rgangan. Ko‘p hamkasblaridan farqli ravishda rus tilini yaxshi bilgan hamda dunyoviy fanlarni o‘rgana boshlagan. U dastavval mahalliy qozi huzurida mirzalik qiladi,

shariat va fiqhni o‘rgandi hamda musulmon huquqi bo‘yicha maslahatlar bera boshladi. 1907-yilda Rossiyaga, so‘ng o‘rta Sharqqa sayohat qildi, Qohira, Damashq, Istanbul shaharlarida bo‘ldi. Yangiusul maktablarida ishlab, geografiya bo‘yicha 8 ta darslik yaratdi.

Munavvar Qori Abdurashidxonov otasidan erta ajralib, boshlang‘ich ta’limni o‘z davrining ilmli ayollaridan biri bo‘lgan onasi Xosiyat otindan oldi. So‘ng maktabda o‘qib, qorilikka tayyorlandi. 1898-yilda u Darxon mahallasi masjidida mudarrislik qildi. Jadidlar g‘oyasi bilan Lg‘aspirali Beyning “Tarjimon” jurnali orqali tanishgan. U 1901-yilda yangiusul maktablari uchun birinchi darslik-“Adi-bi avval”ni tayyorlab, unda grammatika, alifboni o‘qitish asoslarini bayon etib berdi. Ikkinchi darsligi-“Adib us-soniy”da o‘qish va yozishga o‘rgatish uslubini, shuningdek, oiladagi o‘zaro munosabatlar asoslarini tasvirlab bergan. Shuningdek, Munavvar Qori matematika bo‘yicha birinchi darslik muallifi hamdir.

Jadidlar milliy g‘oya va milliy ongni shakllantirishda obyektiv manzarani haqqoniy, to‘g‘ri aks ‘ ettiruvchi tarixni yozib qoldirishga birinchi darajali ahamiyat berishardi. Ular tarixchilar xonlar va beklar to‘g‘risida emas, balki mamlakat ravnaqiga ko‘maklashgan real voqealar to‘g‘risida yozishlari zarur, deb hisoblashardi. Ularning fikricha, taqdir mushtarakligi, birgalikdagi kurash mushtarakligi tarixiy asarlarning chinakam mazmunini shakllantirishi lozim edi. Turkiston tarixi bo‘yicha dastlabki umumlashtiruvchi asar 1870-yildan chiqa boshlagan “Turkiston viloyatining gazeti” muharriri Mulla Olim Maxdum Hoji qalamiga mansub edi. Uning asari “Tarixi Turkiston” deb nomlangandi.

Maktab va madrasalarda tarix fan sifatida o‘qitilmas edi, shu bois jadidlar bu fanni o‘qitishga qaror qilishdi. Yangiusul maktablarida turk xalqlari tarixi va geografiya fanini o‘qitishni Munavvar Qori birinchi bo‘lib joriy etdi. Bu Turkistonning madaniy rivojlanishiga qo‘yilgan muhim qadam edi.

Jadid maktablari yildan-yilga ommalashib bordi. 1914-yilda Toshkentda 15 ta shunday maktab ochilib, ularda 1230 nafar o‘quvchi ta’lim oldi. 1910-yildan 1915-yilgacha Farg‘ona, Samarqand va Sirdaryo viloyatlarida 73 ta yangiusul maktabi ochildi.

Jadidlar mafkurasi hayotiy qoidasi zo‘rlik ishlatmasdan, ya’ni hatto eng keskin muammolarni ham kuch ishlatmay hal etishdan iborat bo‘lgan Mahatma Gandi g‘oyalariga yaqin edi. Jadidlar aslida zo‘ravonlikni rad etishar, chunki yirik ijtimoiy va milliy inqiloblar faqat xalqqa azob-uqubat keltiradi va oxir-oqibatda ozodlik va ijtimoiy taraqqiyot g‘oyasini obro‘sizlantiradi, deb hisoblashar edi. o‘

o‘lkada milliy-ozodlik harakati kuchayib bordi, Turkiston xalqlarining mustamlakachilikka qarshi norozilik kayfiyatlari uning zaminiga aylandi.

Birinchi jahon urushi va aholining milliy tarkibini o`zgarishi

1914-yil 1-avgustda davlatlarning ikki guruhi: Antanta (Angliya. Fransiya va Rossiya) va Uchlar ittifoqi (Germaniya, Avstriya-Vengriya va Italiya) o‘rtasida Birinchi jahon urushi boshlandi. Rossiya urushga tayyor emasdi, ya’ni armiya jangovar tayyorgarlikka keltirilmagan, mamlakat iqtisodiyoti harbiy holatga o‘tkazilmagan edi. o‘q-dorilar yetishmasligi sezilib turar edi. Umshning birinchi yilidayoq Rossiya armiyasi ketma-ket qator og‘ir mag‘lubiyatga uchradi.

Urush davomida qishloq xo‘jaligi vayron bo‘ldi, ekin maydonlari qisqarib ketdi, qishloqda ishchi kuchlar yetishmas edi. Temiryo‘lda boshboshdoqlik hukmron boiib, amalda esa u harbiy davr yuklarini tashir edi. Butun xo‘jalik aloqalari izdan chiqqan. Rossiya iqtisodiyoti urush va bunday ko‘lamdagi harbiy harakatlar uchun zaif ekanligi ayon boidi. Davlat moliyasi inqirozga yuz tutdi. Maorifga, madaniyatni rivojlantirishga xarajatlar kamayib ketdi va mayda kredit deyarli qolmadi. Faqat urushning bir yili davomida soliqlar miqdori 50 foizga ko‘paydi.

Talafotlar o‘rnini to‘ldirish va harbiy xarajatlar o‘sishini qoplash maqsadida qo‘shimcha mablag‘lar izlar ekan, chor hukumati o‘zi uchun ancha odatiy va eng oson bo‘lgan yo‘ldan, ya’ni o‘z mus-tamlaka o‘lkalarini talashdan, urush olib borish uchun sarf-xarajatlarning katta qismini o‘z mustamlakalari, jumladan, Turkiston o‘lkasi gardaniga yuklash yo‘lidan bordi.

1915-yildan boshlab, Turkistonda paxtaga o‘zgarmas davlat narxlari joriy etildi, narxlar umumiy o‘sishi sharoitida bu narx paxtakorlarning hosil yetishtirishdagi xarajatlarini qoplay olmas edi. 1914-1915-yillarda paxtaga

ayirboshlanadigan bug‘doy narxi 100 foizga, 1916-yilda esa 400 foizga ko‘paydi, paxta narxi esa 50 foizga ko‘tarildi, xolos. Bu ko‘rsatkichlar paxtaning davlat uchun zarurligini, lekin paxtakorning taqdiri uni qiziqtirmasligini anglatar edi. o‘z paxtasini boshqa narxlarda, ya’ni monopol narxlardan yuqori narxda sotishga harakat qilib ko‘rgan paxtakorlarga qarshi mol-mulkni musodara qilishgacha bo‘lgan “zo‘ravonlik” choralari qo‘llandi.

1916-yil mahalliy aholi zimmasiga “podshoh ota” foydasiga, uning urush olib borishi uchun “ko‘ngilli” badallar to‘lash majburiyati yuklandi. Bu badallar har bir uy, oiladan olinadigan majburiy soliqlarga aylanib qoldi. Bu soliqlar oddiy xalq daromadi uchun og‘ir yuk edi.

Urush davomida aholiga qo‘shimcha soliqlar va natural majburiyatlar ham yuklandi. Turkistonda bu majburiyatlar butun mustamlaka xo‘jaligining chuqur tanazzuliga olib keldi. Pulning qadrsizlanishi, bajarib boimas soliqlar va sudxo‘rlarning zo‘ravonlarcha shartlari xalq azob-uqubatlarini haddan oshirib yuborgan edi. Ularning xo‘jaligi tamomila zavolga yuz tutdi, bu esa iqtisodiyotning uzil-kesil barbod boiish havfini tug‘dirdi. Dehqonlar yerni arzon-garovga sotib yuborardi, natijada ularning 50 foizdan ortig‘i yersiz dehqonga aylandi. Qarzlari evaziga ularning yer haydovchi mollarini va mehnat qurollarini tortib olishardi. Qishloq xo‘jaligi ahvoli yomonlashuvi oqibatida paxta hosildorligi tushib ketdi va mehnat unumdorligi ham keskin pasaydi.

Milliy g‘oya xalqni birlashtiruvchi asosiy kuchdir. U milliy g‘ayrat-shijoatni va o‘z mamlakatiga muhabbatni alanga oldiradigan uchqundir. Milliy birlik g‘oyasi xalq ongida qaror topadi hamda umummilliy manfaatlarga bo‘ysunish va ularni ro‘yobga chiqarish uchun kurashish zarurligi to‘g‘risida tushunchani uyg‘otadi. Milliy g‘oya milliy iftixor va milliy qadr-qimmat tuyg‘usini uyg‘otadi. San’at, she’riyat, adabiyot va musiqa g‘oyaga xalq ijodi ruhini baxsh etadi, milliy g‘oyani umumxalq ongiga aylantiruvchi ma’naviy yuksalishni yuzaga keltiradi.

O‘rta Osiyoda milliy g‘oya uchun kurash ma’rifatchilik, madaniyatni rivojlantirish, milliy qadriyatlar hamda an’analarni saqlab qolish shaklida namoyon bo‘ldi va bu harakat jadidchilik nomini oldi. “Jadid” arabcha so‘z bo‘lib, “yangi

usul” ma’nosini anglatadi. Jadidlar “tovushli usul”ni qo‘llashdi, bunda alifboning har bir harfiga muayyan tovush muvofiq kelgan bo‘lib, shu tufayli o‘zlashtirish tezligi ancha oshar edi.

Rossiya imperiyasi amaldorlari va mahalliy hukmdorlar zulmi ostida ikki yoqlama ezilgan Turkiston aholisining og‘ir ijtimoiy-siyosiy ahvoli, madaniy va iqtisodiyjihatdan qoloqligi, mazkur ahvoldan qutilish yoilarini izlash jadidlar faoliyatining asosiy harakatlantiruvchi omili bo‘ldi.

Har qanday ijtimoiy tuzum maktab-maorif, llm-fan va shu kabi muhim soha vazifalarini hal etmasdan istiqbol sari ko‘z tikolmasligi ayondir. Shu bois sovet hokimiyati mutasaddilari ham bu masalalarga ahamiyat berar ekanlar, avvalo, ularni o‘z sinfiy manfaatlaridan kelib chiqib hal etishga intildilar. Ayniqsa yangi tuzum xalq ta’limi tizimini o‘z sotsialistik maqsad va g‘oyalari ruhida shakl-lantirishga alohida urg‘u berdi. 1918-yil noyabrida Turkiston sovet hukumatining cherkovni davlatdan va maktabni cherkovdan ajratish to‘g‘risidagi dekreti chiqdi. Unga ko‘ra o‘lkadagi mavjud xususiy, eski diniy maktablar faoliyati taqiqlanmagan bo‘lsada, biroq yangi sovet maktablarini tashkil qilish, ularni ko‘paytira va kengaytira borish, ta'limning sinfiy mohiyatiga e'tibor tobora ustuvor ahamiyat kasb etib bordi. Maktab ikki pog‘onaga bo‘lindi: 1-pog‘ona bilim yurtlari– dastlabki uch sinfni o‘z ichiga olardi va 2-pog‘ona yana 4 sinfdan iborat edi. O‘rta maktab ham mavjud bo‘lib, keyingi uch sinfni o z ichiga olardi. Biroq bunday maktablar juda oz edi. Ko‘proq 1-pog‘ona maktablari eng ko‘p tashkil etilgan edi.

Shu bilan birlikda maktablarning moddiy bazasi nochor ahvolda bo‘lgan. Biarda o‘quv quroilari, dasturlar, qo‘llanmalar va darsliklar, yetuk bilimli o‘qituvchi kadrlar yetishmasdi. Turkiston xalq ta'limi bo‘limi mudirlarining 1920-yil mayida bo‘lib o‘tgan 1-qurultoyida ham bular aniq e'tirof etilgandi. Hokimiyat mutasaddilarining o‘qituvchilarni turli yumushlarga, jumladan, harbiy harakatlarga tez-tez safarbar etishi ham ular sonining kamayib borishiga sabab bo‘layotgandi. Buning orqasida ko‘plab maktablarda o‘qituvchilar tarkibi 75% va undan ham ko‘proqqa qisqarib ketdi. Buning ustiga jiddiy moddiy ta'minotning yo‘qligidan

xo‘jako‘rsinga tashkil etilgan maktablar mahalliy bolalarni o‘z bag‘riga jalb qila olmadi. Masalan, o‘lka bo‘yicha maktab yoshidagi bolalarning 70% dan ko‘pi maktabga tortilmay qoldi. Hatto poytaxt Toshkentda, uning eski shahar qismida maktab yoshidagi 40 ming boladan faqat 10 ming nafari, ya'ni 25% i o‘qirdi, xolos.

Shunga qaramay, millatimiz fidoyilari xalq ta’limi tizimini yaxshilash,mahalliy aholi farzandlarini yangi sovet maktablariga ko‘proq jalb qilish, ularga puxta bilim va tarbiya berish borasida astoydil faoliyat ko‘rsatdilar.

Bu o‘rinda O.Sharafiddfnov, J.Odilov, T.Shermuhammedov, S.Sodiqov, K.Dadamuhammedov, Qori Niyoziy singari taniqli xalq ta'limi namoyandalari nomlarini tilga olib o‘tish joizdir.

Sovetlar davrida Turkistonda oliy ta’lim tizimini tashkil etish ham g‘oyatda muhim ahamiyat kasb etardi. Ko‘plab Vatan fidoyilari sovet hokimiyati organlari bilan murosayu madoraga borib bo‘lsa ham yurt kelajagi, istiqbolini o‘ylab, bu hududda oliy o‘quv yurtini yuzaga keltirishga bel bog‘ladilar. 1918-yil 21-aprelda Toshkentda ochilgan Turkiston xalq universiteti bu harakatlarning natijasi bo‘ldi. Universitet tarkibida tabiiy-matematika, tarix-filologiya, qishloq xo‘jaligi va texnika fakultetlari mavjud edi. 1920-yilga kelib unda ta'lim oluvchilarning 60 foizini mahalliy yoshlar tashkil etardi. Universitetning ta’lim-tarbiya jarayonida Munavvar Qori, Ahmad Fayziy, Burhon Habib, Ibrohim Tohiriy, Usmon Xo‘jayev, Hodi Fayziy singari yurt allomalari fidoyilik ko‘rsatdilari. Milliy vatanparvar ziyolilar bolshevistik g‘oya va mafkuraning har qanday tazyiqi va to‘sqinligiga qaramay, o‘z asarlarida xalq dili, ruhiyati, kayfiyati va uning intilishlarini ifoda etdilar. Cho‘lpon, Fitrat, Tavallo, Karimbek Kamiy, M. Siddiqiy ijodiyotida buni yaqqol kuzatish mumkin. Shuningdek, 1919-yilda Fitrat tomonidan tuzilgan “Chig‘atoy gurungi” tashkiloti va uning tevaragiga uyushgan ilg‘or ziyolilar ham milliy birlik va mustaqillik g‘oyasiga sodiq bo‘lgan holda qizg‘in faoliyat yuritdilar. O‘zbek ziyolilari va ijodkorlari qiyin va murakkab sharoitlarda ham o‘z ijodlariga yo‘l topib, xalqchil asarlar yaratib, yorqin iste'dodlarini namoyon etib bordilar. Mashhur shoir va dramaturg Hamza Hakimzodaning 1918-yilda Farg‘onada tuzgan “o‘lia musulmon siyosiy drama truppasi”, atoqli aktyor va

rejissyor Mannon Uyg‘urning Toshkentda tashkil qilgan “Turon” truppasi kurtak yozib borayotgan o‘zbek milliy san'atining ilk namunalari bo‘ldi. Xususan, bu truppalarga uyushgan Muhiddin Qori Yoqubov, Hoji Siddiq Islomov, Tamaraxonim, Abror Hidoyatov, Obid Jalilov, Sayfi Olimov va boshqalar keyinchalik milliy teatr san'atimizning yetuk darg‘alari bo‘lib yetishdilar.

1939-1945-yillar oralig‘ida yuz bergan ikkinchi jahon urushida 1941-yildan boshlab O‘zbekiston SSR ham qatnashdi va urush mamlakat hayotining barcha jabhalariga o‘z ta’sirini ko‘rsatdi.

Yashin tezligida urush olib borish rejasiga ega bo‘lgan nemis-fashist qo`shinlari shiddat bilan Sharqqa qarab xarakat qilar edi. Front yaqinidagi shahar va qishloqlardan yuz minglab aholi, sanoat korxonalari, o`quv yurtlari, ilmiy tashkilotlar va boshqa moddiy boyliklarni mamlakat ichkarisiga - Sharqqa ko`chirish boshlandi. O`rta Osiyo respublikalariga evakuatsiya qilingan 308 korxonaning 104 tasi (Leningrad to`qimachilik mashinalari zavodi, “Qizil Oqsoy”, “Rossel’mash”, Sumsk kompressor va Dnepropetrovsk karborund zavodlari, Moskvadagi “Elektrokabel’” va “Pod`yomnik” zavodlari, Temir yo`llar xalq komissarligining mashinasozlik zavodi, Chkalov nomidagi aviatsiya zavodi, “Krasniy put” zavodi, Kiyevdagi “Transsignal” zavodi, Stalingrad kimyo kombinati va boshqalar) O`zbekistonga; ulardan 55 ta korxona Toshkent va Toshkent viloyatiga, 14 ta zavod va fabrika Samarqandga, 22 tasi Farg‘ona vodiysiga, ikkitasi Buxoro viloyatiga joylashtirildi. Bu korxonalarni joylashtirish, montaj qilish va g‘oyat qisqa muddatlarda ishga tushirish vazifasini tashkiliy jihatdan ta`minlash ishi bilan maxsus komissiya shug‘ullandi.

Evakuatsiya qilingan zavod va fabrikalarni tiklashda talabalar, o`quvchi, uy bekalari, fan va madaniyat xodimlari, xizmatchilar va kolxozchilar katta kuch-g‘ayrat bilan tinim bilmay mehnat qildilar va qisqa kunlarda, ya`ni “Rossel’mash” 25 kunda, “Qizil Oqsoy” zavodi bu yerga etib kelganidan keyin oradan 29 kun o`tganda ishga tushirilib, mahsulot bera boshladi. 1941 yil dekabrga kelib evakuatsiya qilingan korxonalarning qariyb 50 tasi ishga tushirildi. 1942 yil birinchi yarmida esa barcha keltirilgan sanoat korxonalari mahsulot chiqara

boshladi.

Sanoat korxonalari qisqa vaqt ichida harbiy izga solinib, minomyot va avtomatlar, samolyot va tanklar uchun ehtiyot qismlari va boshqa harbiy qurollar ishlab chiqara boshladilar. Qishloq xo‘jalik mashinalari ishlab chiqarayotgan Toshkent qishloq xo‘jalik mashinasozligi zavodi harbiy qurollar ishlab chiqara boshladi. Andijondagi “Kommunar”, “Stroymashina” zavodlarida samolyot va tanklarga kerakli mahsulotlar, Qo‘qon shahridagi Oxunboboyev nomli tikuvchilik fabrikasi harbiy kiyimlar ishlab chiqaradigan bo‘ldi. Toshkentlik sanoatchilar harbiy mahsulot ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yishda fidokorona mehnat qildilar. 1941-yil dekabrigacha shahardagi 137 sanoat korxonalarining 64 tasi qurol-yarog‘lar, front uchun zarur mahsulotlar ishlab chiqarishga kirishdi.

Toshkentda zudlik bilan joylashtirilgan “Rostselmash” zavodi “Katyusha” va minomyot snaryadlari, aviatsiya zavodi jangovar samolyotlar, Kolchuginskdan keltirilgan kabel zavodi harbiy aloqa mahsulotlari yetkazib bera boshladi.

Yuk ko‘taruvchi kranlar yo‘q edi, maxsus asbob-uskunalar, elektr quvvatlari, ko‘mir va neft kabi yoqilg‘ilar, xom ashyo va boshqa materiallar yetishmas edi. 1941-yil 5 – 7-dekabr kunlari bo‘lib o‘tgan O‘zbekiston Kompartiyasi Markaziy Qo‘mitasining V plenumida respublika sanoatini harbiy izga solish, ko‘chirib keltirilgan asbob-uskunalarni joylashtirish sohasidagi ishlarga yakun yasalib, korxonalarda qurol-yarog‘larning muhim turlari - samolyotlar, tanklar, bronepoyezdlar, aviabombalar, to‘p va zambaraklar, granatalar, minalar, snaryadlar ishlab chiqarishni keng miqyosda yo‘lga qo‘yish vazifasi ilgari surildi. Buning uchun yetarli darajada metall qirquvchi stanoklar va aniq o‘lchovchi instrumentlar ishlab chiqishni tashkil etish, nodir metallar qazib olishni kuchaytirish hamda qora va rangli metallurgiya sanoatini yaratish, elektr energetika bazasini kengaytirish, neft qazib olishni 2-3 barobar oshirish, ko‘mir qazib olishni kuchaytirish, yirik qurilish materiallari ishlab chiqarish korxonalarini barpo etish, qisqa muddatda 30 ming malakali ishchilar tayyorlash tadbirlari belgilandi.

Harbiy izga tushirilgan respublikamiz korxonalari ham anchagina kengaytirildi. “Tashselmash” zavodi, masalan, boshqa korxonalardan keltirilgan

438 stanok, 200 dan ortiq yuqori malakali ishchilar hisobiga kengaydi. Qodirov, Hakimov, Yusupov, Ismoilov va boshqa ustalar kunlik normalarini 200-300 foizga oshirib bajardilar. “Tashselmash” zavodi 1941-yilgi ish rejasini 240 foizga ado etdilar.

Urush yillarida boshqa mamlakatlardan ko‘plab aholi ko‘chirib keltirilgan va orasida turli qatlam vakillari bor edi. Albatta, ular bu yerda turli sohalarda faoliyat olib borishdi. Ikkinchi jahon urushidan so'ng SSSR aholisi ko'payaverdi va 1950-yildan 1982-yilgacha u 92 mln kishidan ziyod ya'ni, 52 foizga ko'paydi.

Jumladan, O'zbeksiton aholisi 1950-yil 6194 ming, 1960-yil 8395ming„ 1970-yil 11799 ming, 1980-yil 15765ming kishini tashkil etgan holda aholining o'sish darajasi ham O'zbeksitonda boshqa mamlakatlarga qaraganda ko'pchilikni tashkil etardi. Shuningdek, butun SSSR bo'yicha aholining joylanish zidlik darajasi 1959-yil 9,3 kishi, 198-yil esa 12,1 kishini tashkil etgani holda O'zbekistonda 1km$^2$ ga 1959-yil 18,4 kishi va 1982-yilda 37,1 kishini tashkil etadi. O'zbeksitonda 1939-yil shahar aholisi 23 foizni tashkil etgan bo'lsa, 1959-yilda 34 foiz, 1970- yil 37 foiz, 1979-yil 41 foiz va 1980 yil 42 foizni tashkil etar edi.

1979-yil 17-yanvardagi ro'yxat bo'yicha O'zbekistonda 15389 ming aholi bo'ladigan bo'lsa, shundan o'zbeklar 10569 ming (68,7%), qoraqalpoqlar 298ming (1,9%), ruslar 1666 ming (10,8%), tatarlar 649 ming(4,2%),qozoqlar 620ming (4%),tojiklar 595 ming(3,9%),koreyslar 163ming (1,1%), qirg‘izlar 142ming(0,9%),ukrainlar 114ming(0,7),yaxudiylar 100ming(0,6%), ozarbayjonlar 60 ming (0,4%) va boshqa millat va elatlar 321 ming (2,2%)ni tashkil etardi.1940-1950- yillarda milliy siyosatda kechirib bo'lmaydigan xatolarga yo'l qo'yildi. Bu yillar va ko'plab xalqlar turli sabab va bahonalar bilan o'zlarining yashab turgan hududlaridan mamlakatning boshqa hududlariga ko'chirildi. O'rta Osiyo xususan, O'zbekiston zo'rlik bilan etnik ozchilikni joylashtirish hududiga aylantirildi,

O'zbekistonga 175 mingdan ortiq chechenlar, 157ming ingushlar, 150mingdan ortiqroq qrim tatarlari, 4500 bolqorlar, o'nminglab mexseti turklar, greklar ko'chirib kletirildi. O'zbek xalqi ularni beqaror kutib oldi. Yashash uchun uy-joy, oziq- ovqat bilan yordam berdi. Mahalliy hokimiyat ularga hosildan,

yerlardan tomorqa, yeruy qurish va xo'jalik yuritish uchun kredit mablag‘lar ajratdi.

Ularga uy, yer sotib olish va qurish uchun ham qarz mablag‘lari ajratilgan, oziq-ovqat berib turilgan. 1945-yil 1-iyulgacha bo'lgan ma'lumotga ko'ra Farg‘ona viloyatiga joylashtirilgan Qrimdan va Gruziyadan maxsus ko'chirilgan 6569 oiladan 4322 oila laxoz a'zolariga qabul qilingan va shaxsiy tomorqa hamda yer bilan ta'minlangan. 3847 oiladan 979 oila qishloq xo'jaligi kreditini olgan, Ammo bu chora-tadbirlar, qarorlar ko'zga tutilgan ko'rsatmalar hamma ko'chirilgan aholini qamrab olgan emas va ularning barcha ehtiyojlarini to'la bajarish imkonini bermas edi. Stalin milliy siyosatning zararlariga qaramay urush yillarida mamlakatdagi vaziyatni xalqlarning jipsligi belgilab berdi.

Sovetlar va Kommunistik firqa sotsial-iqtisodiy turmushning barcha sohalarida mustamlakachilarga hos tub erli aholini har tomonlama tahqirlovchi va kamsituvchi siyosat olib bordi. Ammo bu siyosat «hamma narsa inson uchun, insonning baxt-saodati uchun» degan balandparvoz shiorlar pardasiga o‘ralgan holda amalga oshirildi. Bu bilan biz 1946-1990 yillarda sotsial-iqtisodiy sohada qilingan ishlarni e'tibordan qochirayotganimiz yo‘q. Albatta bu yillarda aholining uy-joy bilan ta'minlash, vodoprovod, kanalizatsiya qurilishi, madaniy-maishat turlarining qurilishi va hokazo sohalarda ancha ishlar qilindi, bunday ishlar har qanday sharoitda ham qilinmasligi mumkin emas edi. Biz bu o‘rinda o‘quvchi diqqat-e'tiborini sovetlar hukumatining O‘zbekistonda sotsial-iqtisodiy sohada ko‘rsatgan shovinistik-ulug‘ davlatchilik faoliyatiga qaratmoqchimiz. Gap Ittifoq yagona xo‘jalik kompleksi, unda hamma respublikalar va xalqlar teng huquqlarga ega deb e'lon qilgan va uni o‘z Konstitutsiyasida yozib qo‘ygan bo‘lsada amalda, hayotda mutlaqo boshqa qonunlar harakatda edi. Jumladan Rossiya Federatsiyasidagi ishlab chiqarish korxonalari, tashkilot va idoralaridagi xodimlar bilan O‘zbekistondagi xodimlarning ish haqlari bir-biridan keskin farq qilardi. Hatto O‘zbekistonning o‘zida ham Ittifoq tasarrufidagi (497ta) korxonalar bilan mahalliy korxonalarda ishlaydigan ishchilarning oladigan oylik maoshlari o‘rtasida katta farq bo‘lardi. Jumladan 1950 yilda Ittifoq tasarrufidagi korxonalardagi

ishchilarning ish haqlari 133 foiz oshgani holda, respublikaga qarashli korxonalardagi mehnatchilarning ish haqlari faqat 73 foiz oshdi, xolos, 80-yillarning o‘rtalariga kelganda O‘zbekiston aholisining jon boshiga to‘g‘ri keladigan daromadlari Rossiya Federatsiyasi va boshqa jumhuriyatlarga taqqoslaganda 2-3 barobar kam edi. Ayniqsa jamoa xo‘jaliklari a'zolarining oylik ish haqlari juda past edi. 1988 yilda jamoa xo‘jaligi a'zosining bir oylik ish haqi Ittifoq bo‘yicha 181,8 so‘mni tashkil etgan bo‘lsa, bu ko‘rsatgich RSFSRda 200,4 so‘mga, Estoniyada-304,9 so‘mga va O‘zbekistonda 149,6 so‘mga teng bo‘lgan. Rossiya shaharlaridagi aholining o‘rtacha oyligi esa 250 so‘mga teng edi.

Bu so‘zsiz suratda respublika mehnatkashlari sotsial-iqtisodiy va turmush darajasining g‘oyatda og‘ir bo‘lganligini ko‘rsatuvchi dalildir va bu narsa mamlakat aholisining yashash tarzi, xarid quvvati, turmush ahvoli, tibbiyot xizmati kabi masalalarda o‘z ta'sirini ko‘rsatar edi. Masalan, 1988 yilda shaharda yashovchi har bir kishi boshiga to‘g‘ri keladigan tovar oboroti Ittifoqda o‘rtacha 1566 so‘mni, Estoniyada 2339 so‘mni tashkil etgani holda, O‘zbekistonda u faqat 1201 so‘mga teng bo‘ldi, xolos. Respublikaning qishloq joylarida esa umuman achinarli ahvolda bo‘lib, 451 so‘mni tashkil etardi.

Aholiga tibbiyot xizmati ko‘rsatish ham talab darajasida emasdi. Markaziy hukumat O‘zbekistonda aholi jon boshiga tibbiyot xizmati ko‘rsatish maqsadlari uchun o‘rtacha 49 so‘m 77 tiyin mablag‘ ajratdi. Holbuki, bu ko‘rsatkich Ittifoq miqyosida qariyb ikki baravar ortiq bo‘lib 81 so‘m 85 tiyinga teng edi.

O‘zbekiston aholini uy-joy bilan ta'minlashda ham eng og‘ir ahvolda bo‘lgan. To‘g‘ri har bir kishiga to‘g‘ri keladigan foydali yashash joyi m2 bilan hisoblaganda mamlakatda 1980 yilda 10.3, 1985 yilda 11.0, va 1990 yilda 12.1 m2 o‘sganligini ko‘ramiz. Ammo 1988 yildayoq bu boradagi taraqqiyot darajasiga SSSRda 15,5 m2 ni, RSFSRda –15,7 m2 ni, Estoniyada 21.1 m2 ni tashkil etardi. Bunday vaziyatning asosiy sababi O‘zbekiston uchun uy-joy qurilishiga ajratilgan kapital mablag‘ning kamligida edi. Aholi jon boshiga hisoblaganda uy-joy qurilishi uchun ajratilgan kapital mablag‘ 1987 yilda o‘rtacha SSSR bo‘yicha 119,5 so‘mga teng bo‘lgan bo‘lsa, RSFSRda-139 so‘m, Estoniyada-119 so‘m va O‘zbekistonda

78 so‘mni tashkil etgan. Bolalar bog‘chalari bilan ta'minlanish va boshqa madaniy-maishiy ishlar sohasida ham respublikada og‘ir vaziyat vujudga kelgan edi.

80-yillarda aholining 60 foizdan ortiqrog‘i yashab istiqomat qilayotgan o‘zbek qishlog‘ining ahvoli g‘oyatda tang edi. 1989 yilning avgustiga qadar bo‘lgan yozma ma'lumotlarda qayd etilishicha, O‘zbekiston qishloq aholisining faqat 5 foizi kanalizatsiya va vodoprovod bilan, salkam 50 foizi normal ichimlik suvi bilan, 17 foizi tabiiy gaz bilan ta'minlangan edi, xolos.

O‘zbekiston eng bolajon respublikalardan bo‘lganligidan aholining erga va hovli joylarga bo‘lgan ehtiyoji yil sayin oshib bordi. 1950 yildan 1990 yilga qadar O‘zbekiston aholisi 14 million 58 ming kishiga ko‘paydi va ja'mi bo‘lib 20 million 322 ming kishiga etdi. Shu boisdan ham 1989 yilgi ma'lumotlarga qaraganda O‘zbekistonda 240 ming oilaning mutlaqo eri bo‘lmagan. 1,8 miliondan ko‘proq ahvoli esa uy-joy qurilishi va qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini etishtirish uchun kengaytirishga juda muhtoj edi. Faqat Toshkent shahrining o‘zida 92 ming oila yer uchastkasi olish uchun navbat kutardi.

Mustaqillikka erishgach, O‘zbekiston o'z tashqi siyosatini mustaqil ravishda yuritish imkoniyatini qo'lga kiritdi. Uning negiziga quyidagi ustuvor tamoyillar asos qilib olindi: davlat milliy manfaatlarining, xalqaro huquq me'yorlarining ustuvorligi, boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik, barcha nizolarni tinch yo'l bilan hal etish, o'zining milliy-davlat manfaatlari ustuvorligida o'zaro manfaatlarni har tomonlama hisobga olish, biror-bir davlatning ta'sir doirasiga kirmaslik, to'la ishonch, xalqaro iqtisodiy va moliyaviy tashkilotlar doirasidagi hamkorlikni chuqurlashtirish asosida ikki tomonlama, shuningdek, ko'p tomonlama tashqi aloqalarni o'rnatish va ularni rivojlantirish. Mustaqillik yillarida inson omiliga alohida e’tibor qaratildi va ijtimoiy masalalar davlat siyosatining bosh maqsadlaridan biriga aylandi.

Bugungi kunda, O‘zbekiston dunyoning 120 dan ortiq davlati bilan diplomatik aloqa o'rnatgan.

Toshkentda 44 ta elchixona, 9 ta faxriy konsul, 10 ta xalqaro tashkilot vakolatxonalari, 5 ta xalqaro moliyaviy tashkilot vakolatxonalari, 3 ta savdo

vakolatxonasi faoliyat yuritmoqda.

O‘z navbatida, O‘zbekiston Respublikasining 46 ta diplomatik va konsullik vakolatxonalari chet davlatlarda va xalqaro tashkilotlar huzurida, shu jumladan, Nyu-York shahrida BMT huzuridagi doimiy vakolatxonasi hamda Jeneva shahrida BMTning Yevropa bo'limi va boshqa xalqaro tashkilotlari huzurida faoliyat yuritmoqda. O‘zbekiston Respublikasi 100 dan ziyod xalqaro tashkilot a'zosidir. Ular orasida ayniqsa BMT, ShHT, MDH, KXSHT nufuzli tashkilotlardir. Yevropa Ittifoqi va NATO bilan yaqin hamkorlik aloqalari rivojlanmoqda.

Teng huquqli va o'zaro manfaatli hamkorlik tamoyili asosida turli davlatlar bilan keng ko'lamli aloqalar o'rnatilishi O‘zbekistonga jahon xo'jalik aloqalari tizimiga muvaffaqiyatli integrasiyalashuv, xalqaro siyosiy, iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy va madaniy aloqalarni faol o'rnatish uchun imkoniyat yaratadi. O‘zbekiston Respublikasi tashqi siyosatining eng ustuvor yo'nalishi – qo'shni davlatlar, avvalo, mintaqadagi davlatlar bilan aloqalarni rivojlantirish va mustahkamlash va har tomonlama hamkorlik qilishdir. Mintaqaviy hamkorlikni yanada chuqurlashtirish – Markaziy Osiyoda tinchlik, barqarorlik va taraqqiyotning garovidir.

G‘arb, Osiyo va Tinch okeani mintaqasi mamlakatlari, Janubi-Sharqiy va Janubiy Osiyo davlatlari bilan aloqalarni izchillik bilan rivojlantirib, O‘zbekiston ushbu aloqalarni yangicha ma'no-mazmun bilan to'ldirishga intilmoqda.

O‘zbekiston va Yevropa Ittifoqi o'rtasida 1996 yilda imzolangan Sheriklik va hamkorlik to'g‘risidagi Bitimga muvofiq, Yevropa Ittifoqi bilan siyosiy muloqotlar, savdo-iqtisodiy va madaniy-gumanitar aloqalar rivojlanmoqda va mustahkamlanmoqda.

O‘zbekiston bilan Shimoliy va Janubiy Amerika davlatlari, jumladan, AQSh o'rtasida hamkorlik kengaymoqda. O‘zbekiston va AQSh xavfsizlikka tahdid soluvchi global jarayonlar – narkotik moddalarning noqonuniy savdosi, ommaviy qirg‘in qurollarini tarqatishga qarshi kurash sohasida hamda Afg‘onistonda tinchlik va barqarorlikni mustahkamlash borasida o'zaro hamkorlikni davom ettirmoqda.

Mustaqillikka erishgach, O‘zbekiston e'tiqodi, an'analari va urf-odatlari

bo'yicha yaqin bo'lgan Osiyodagi, Yaqin va O‘rta Sharqdagi musulmon davlatlar bilan to'g‘ridan-to'g‘ri aloqalarni o'rnatish imkoniyatiga ega bo'ldi. Ushbu davlatlar bilan siyosiy, iqtisodiy, madaniy va gumanitar aloqalar rivojlanmoqda.

Yana bir muhim yo'nalishlardan biri bu MDH davlatlari bilan aloqalardir. MDHga a'zo davlatlar ko'p tomonlama va ikki tomonlama asosda umumiy va milliy manfaatlarni ro'yobga chiqarish uchun o'z pozisiyalarini kelishish imkoniyatiga ega.

O‘zbekiston tashqi siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan yana biri – mintaqaviy va global miqyosda tinchlik va barqarorlikni saqlashdagi xalqaro hamkorlikdir. Xavfsizlikning uzviyligi to'g‘risidagi eng asosiy tamoyilga asoslangan holda, O‘zbekiston xalqaro tuzilmalarning, eng avvalo, BMTning xalqaro va mintaqaviy xavfsizlik va barqarorlikni ta'minlashdagi rolini kuchaytirish zarurligini ta'kidlab kelgan va bundan keyin ham shunday qiladi

Bugun hayotning har bir jabhasida yangilik va bunyodkorlik ishlari jadal sur'atlarda davom etmoqda. Tabiiyki, bunday yangilanishlar natijasi nafaqat xalqimiz hayotida, balki nufuzli xalqaro reyting va indekslar ko'rsatkichlarida ham o'z ifodasini topayotir.

Aytish kerakki, xalqaro reyting va indekslar har bir mamlakatning rivojlanish jarayonini o'zida namoyon etib, davlat boshqaruvi sifati, aholining turmush darajasi, inson huquqlari muhofazasi, tadbirkorlik faoliyati va xorijiy investorlar uchun qulay muhit, barqaror iqtisodiy o'sish va raqobatbardoshlik kabi muhim jihatlarning ko'zgusidir. Bu jihatlar mamlakatimizdagi islohotlar mohiyatida ham mujassam. Bularning barchasi inson qadrini ulug‘lashga, odamlarning hayotdan rozi va mamnun bo'lib yashashini ta'minlashga xizmat qilishi bilan yanada teran mazmun kasb etadi.

Prezidentimizning shu yil 2 iyunda qabul qilingan “O'zbekiston Respublikasining xalqaro reyting va indekslardagi o'rnini yaxshilash hamda davlat organlari va tashkilotlarida ular bilan tizimli ishlashning yangi mexanizmini joriy qilish to'g‘risida”gi farmoni yurtimizda bu yo'nalishda amalga oshirilayotgan ishlarni yangi bosqichga ko'tarishda muhim dasturilamal bo'ldi.

Mazkur farmonga muvofiq, xalqaro reyting va indekslar bilan ishlash bo'yicha respublika kengashi tuzilib, sohada parlament nazorati o'rnatildi. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati raisi Tanzila NARBAEVA bilan suhbatimiz mazkur farmon ijrosini ta'minlash, mamlakatimizning xalqaro reyting va indekslardagi o'rnini mustahkamlash borasida qilinayotgan ishlar xususida bo'ldi.

— Ilgari ustuvor xalqaro reyting va indekslar bo'yicha ishlarni hukumatning maxsus komissiyasi muvofiqlashtirib kelar edi. Prezidentimiz farmoni bilan bu borada respublika kengashi tuzilishiga nima sabab bo'ldi?

— Xalqaro reyting va indekslar dunyodagi institutsional muhitning sifatini baholashda iqtisodiy rivojlanishning asosiy sharti sifatida jahon hamjamiyati tomonidan qabul qilingan vositadir. Ular nafaqat ekspertlar, balki davlatlar darajasida ham islohotlar va ijtimoiy-iqtisodiy siyosat mezoni sifatida qo'llanib kelinadi.

Keyingi yillarda mamlakatimiz ko'pgina ustuvor reytinglarda yuqorilab borayotgani yurtimizda aholi turmush farovonligini oshirish, jamiyatimizda ochiqlik, oshkoralikni ta'minlash borasida qilinayotgan ezgu ishlarning muhim natijasidir.

Masalan, yaqinda BMTning Sanoatni rivojlantirish tashkilotining - (YUNIDO) “Raqobatbardosh sanoat unumdorligi indeksi” bo'yicha hisoboti chop etildi. Unda mamlakatimiz ilk marotaba aks ettirilib, 152 ta mamlakat orasida 92-o'rinni, MDHga a'zo davlatlar orasida 5-o'rinni, Markaziy Osiyo mamlakatlari orasida 2-o'rinni egalladi.

Aytish kerakki, bugun jamiyatimizdagi islohotlarning bosh maqsadi xalqimizni rozi qilishdek ezgu maqsadga yo'naltirilmoqda. Barcha sa'y-harakatlarimiz, islohotlarimiz, qabul qilayotgan qonun va qarorlarimiz zamirida ham ushbu maqsad mujassam. Aholi yuritilayotgan siyosatdan qanchalik rozi bo'lsa, turli reyting va indekslardagi o'rnimiz o'z-o'zidan oshib boraveradi.

Xususan, iqtisodiyotda davlatning rolini kamaytirish, makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash, iqtisodiy o'sish istiqbollarini yaxshilashga qaratilgan

bosqichma-bosqich islohotlar 2020 yilda Jahon bankining “Biznes yuritish” indeksida 76-o'rindan 69-o'ringa ko'tarilishimizga, “Transparency International”ning Korruptsiyani qabul qilish indeksi hamda “World Justice Project”ning Qonun ustuvorligi indeksida mamlakatimiz o'rni yaxshilanishiga olib keldi.

SHu bilan birga, bu yo'nalishda hali qilinishi kerak bo'lgan vazifalar talaygina. Prezidentimiz farmoni asosida davlat organlari faoliyati natijadorligini oliy, ya'ni parlament darajasida nazorat qilish belgilanganidan maqsad — bu borada vazirlik va idoralar rahbarlarining mas'uliyatini oshirishdir. SHu bois, xalqaro reyting va indekslar bilan ishlash bo'yicha respublika kengashi tashkil etildi. Oliy Majlis deputatlari va senatorlarining xalq tomonidan saylanishini inobatga oladigan bo'lsak, mazkur mexanizm sohadagi chora-tadbirlar ijrosi ustidan xalq nazorati o'rnatilganligini anglatadi.

endilikda vazirlik va idoralar rahbarlari o'zlari mas'ul bo'lgan reyting va indekslarda ko'rsatkichlarni yaxshilash bo'yicha amalga oshirilgan ishlar va belgilangan vazifalar ijrosi yuzasidan respublika kengashida hisobot berib boradilar.

Xalqaro reyting va indekslardagi mamlakatimiz o'rnining yaxshilanishi ko'p jihatdan qabul qilayotgan qonunlarimizning joylardagi ijrosiga bog‘liq. SHuning uchun ham kengash tarkibiga mahalliy hokimlar kiritildi. Bu esa qonun talablarining joylardagi ijrosi yuzasidan muammolarni vaqtida aniqlash va ularni bartaraf etish imkonini beradi.

SHu orqali bu yo'nalishdagi ishlarda parlament, vazirlik va idoralar hamda mahalliy hokimliklarning o'zaro hamkorligi ta'minlanadi, sansalorlik holatlarining oldi olinadi, barcha ishlar muvofiqlashtirilgan holda tashkil etiladi.

— Xalqaro reyting va indekslar bilan ishlash mamlakatimiz uchun butkul yangi yo'nalish hisoblanadi. SHu ma'noda vazirlik va idoralar, sud va prokuratura organlari, mahalliy hokimliklar bunga qay darajada tayyor?

— Albatta, bu ko'p vaqt sarflanadigan, progressiv bilimlarni talab etuvchi yangi jarayonlardan biri. Bu, shubhasiz, mas'ul davlat organlarining o'zlariga

biriktirilgan xalqaro reyting va indekslar metodologiyasini izchillik bilan o'rganish, uni to'g‘ri talqin qila olgan holda amaliyotga tatbiq eta olish, xalqaro reyting va indeksni beruvchi tashkilot bilan aloqalarni o'rnata olish bilan bog‘liqdir.

Ochig‘i, barcha vazirlik va idoralar, ayniqsa, joylardagi hokimliklar yoki parlament a'zolarining barchasi ham masalaning tub mohiyatini to'la anglab etdi, deb aytish mushkul. YUqorida aytganimdek, reyting va indekslar joylardagi vaziyatga bog‘liq, qonunlarning ijrosiga bog‘liq. Ming afsuski, joylardagi hokimliklar yoki davlat organlari vakillarining ba'zida bilib-bilmay aytgan gap-so'zlari yoki xatti-harakatlari reyting va indekslardagi o'rnimizga salbiy ta'sir qiladi.

BMT so‘nggi yillarda ijtimoiy masalalar borasida O‘zbekiston bilan hamkorlik aloqalari yangi bosqichga chiqqan. BMTning genderga oid faoliyati keng ko‘lamdagi masalalarga qaratilgan va vaqt o‘tgani sari yangi shakl va mazmunga ega bo‘lib bormoqda. O‘zbekistonda BMTTD vakolotxonasi ochilganidan buyon aholi daromad topishi uchun mikro kredit berishga doir loyihalar ijrosini taominlash, ayollarning mamlakatdagi huquqiy mavqei, genderga oid maolumotlar va statistika manbalarini baholash, mahalliy NNTlarni so‘rovlar o‘tkazishga tayyorlash va gender sohasidagi imkoniyatlarni yanada kengaytirishga qaratilgan qator ishlar amalga oshirildi.

BMTTD Ayollarga nisbatan kamsitishning barcha turlariga barham berish to‘g‘risidagi konvensiyaga muvofiq maxsus hisobot mexanizmlari, gender siyosati tatbiqi va tahliliga baьishlangan anjumanlar va tadbirlar o‘tkazdi. BMTTDning «Gender va rivojlanish» bo‘limi O‘zbekiston Xotin-qizlar qo‘ mitasi bilan hamkorlikda O‘zbekistonda xotin-qizlarning mavqeini yanada oshirishga qaratilgan Milliy harakat dasturini ishlab chiqdi. Bunday hamkorlik natijasida quyidagi nashrlar chop etildi. Makroiqtisodiyot va statistika vazirligi bilan hamkorlikda «Gender statistikasiga oid to‘plam» bosmadan chiqarildi. «Xotin-qizlarning ahvoli to‘g‘risidagi hisobot» esa, 1999 yilda Iqtisodiy va ijtimoiy tadqiqotlar markazi bilan hamkorlikda tayyorlandi.

BMT vakolatxonasi hozir gender tengligi ьoyalarini yoyishning izchil ichki va tashqi imkoniyatlarini kengaytirish borasida faoliyat olib bormoqda. BMT va O‘zbekiston hukumatining Taraqqiyotga ko‘mak dasturidagi genderga doir masalalar bo‘yicha bir necha dastur va chora-tadbirlar ishlab chiqildi. Hamda muvaffaqiyatli nihoyasiga yetkazildi. Bu faoliyat xotin-qizlar manfaatlarini himoya qilish, gender o‘quvi, ayollarga nisbatan zo‘rovonlikning oldini olish, odam, ayniqsa xotin-qizlar va bolalar savdosi bilan boьliq mavzularni qamrab oladi. Osiyo taraqqiyot banki missiyasi, Makroiqtisodiyot va statistika vazirligi qoshidagi statistika davlat departamenti, O‘zbekiston Xotin-qizlar qo‘mitasi va O‘zbekiston Respublikasi Ishbilarmon ayollar - «Tadbirkor ayol» uyushmasi bilan yo‘lga qo‘yilgan samarali hamkorlik «O‘zbekiston xotin-qizlari va erkaklari» gender statistikasi to‘plamini chop etish imkonini berdi. BMT vakolatxonasining ayni paytdagi faoliyati davlat xodimlarini genderni chuqur anglab yetishiga qaratilgan muntazam o‘qishini yo‘lga qo‘yishga qaratilgan. Binobarin, ularning davlat musassasalari va vazirliklarda gender yondashuvini joriy etishi nihoyatda foydali bo‘lur edi. Bulardan tashqari, fuqarolik jamiyati va xotin-qizlar NNTlariga mamlakatning barcha burchaklaridagi turli NNTlar ishtirokida forumlari tashkil etish, xotin-qizlar manfaatlarini himoya qilish va gender tengligiga erishish borasidagi faoliyatini samarali tashkil etishda ko‘mak berildi. BMTning gender sohasidagi barcha faoliyati gender muammolarini hal etishga doir yagona yondashuvni taominlash maqsadida BMT agentliklari, xalqaro tashkilotlar, fuqarolik jamiyati va hukumat vakillari bilan yaqindan hamkorlikda amalga oshirishga qaratilgan. Vakolatxona mamlakatda Mingyillik rivojlanish maqsadlari Milliy dasturining ijrosi doirasida gender tengligi va xotin-qizlar mavqeini oshirishni qo‘llab-quvvatlash majburiyatini oldi. SHuningdek, u Mingyillik maqsadlarining barchasida gender yondashuvi o‘zining keng ifodasini topishini kafolatlaydi.

BMT OIV/OITS bo‘yicha dasturi OITSga qarshi global kurashni qo‘llab-quvvatlaydi, mazkur global epidemiya tarqalishining oldini olishga yo‘naltirilgan saoy-harkatlarga rahbarlik qiladi. 2004 yili OITS bo‘yicha «Ayollar, qizlar, OIV va

OITS» mavzuida kampaniya o‘tkazildi. Unda ayniqsa ayollar va qizlarning OIVni yuqtirish va OITSga chalinish xavfi yuqori ekanligiga alohida eotibor qaratildi. CHunki, dunyoda OIVni yuqtirib yashayotgan kishilarning deyarli yarmi ayollardir. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatmoqdaki, OIVga ayollar va qizlar erkaklar va o‘ьil bolalarga nisbatan ko‘proq giriftor bo‘lar ekan. Ularga kasallik yuqish ehtimoli 2,5 baravar balandligini ko‘rsatmoqda. Ayollarning himoyalanmagan bir martalik jinsiy aloqa vaqtida OIV yuqtirish ehtimoli ikki baravar katta. Achinarli tomoni, ayollar himoyalangan jinsiy aloqada ko‘p hollarda erkaklar raoyiga qarashga majburdir. O‘zbekistonga oid statistik maolumotlarga ko‘ra, OIV yuqqan ayollar soni so‘nggi ikki yil ichida o‘sgan, jumladan u homilador ayollar orasida tobora ortmoqda. OIVning geteroseksual aloqa orqali yuqishi ham shu tarzda tobora kengaymoqda. Bu OIVning tegishli guruhlar orqali aholi o‘rtasida ham keng tarqalish xavfi mavjudligini bildiradi. UNAIDS tomonidan BMTning OIV/OITS bo‘yicha dasturi va mamlakatga yordam ko‘rsatish borasidagi beshta vazifa tasdiqlandi. Ular quyidagilar:

- Mamlakatda samarali ishlash uchun liderlikni kuchaytirish;
- Jamoat, xususiy va nodavlat tashkilotlarining hamkorligini kuchaytirish va safarbar qilish;
- Strategik axborot boshqaruvini kuchaytirish;
- Mamlakatda rejalashtirish, nazorat qilish, mon i tor ing va baholash uchun sha -

roit yaratish;

- Moliyaviy va texnik resurslardan unumli foydalanishni taominlash.

Mazkur besh vazifani bajarishda quyidagi masalalarga ustuvorlik beriladi:

- OIV/OITSga chalinganlarni imkon qadar ko‘proq aniqlash;
- 3 tadan 5 tagacha tashabbusni strategik qo‘llab-quvvatlashni taominlash;
- Epidemiyaning tobora ayollar orasida ko‘proq tarqalayotgani va ayollarning OIV yuqtirishdagi o‘ziga xos nochor ahvoliga eotiborni qaratish;
- Milliy OITS kampaniyasini Jahon OITS kampaniyasi doirasida qo‘llab-quvvatlash;

- Mamlakatda bu borada amalga oshirilayotgan dasturlar ijrosida ko‘zga tashlanayotgan muayyan muammolarga, ayniqsa, fohishabozlik, shprits bilan narkotiklar isteomol qilinishiga eotiborni yanada kuchaytirish;

- «Uchta yaxlitlik» yondashuvini taominlash: Milliy harakatning yaxlit asosi;

OITS bo‘yicha yaxlit milliy or gan; Yaxlit ijrochi va nazoratchi.

Reproduktiv salomatlikka oid mazkur dasturga binoan keng tarьib etilishi va qo‘llab-quvvatlanishi zarur masalalarning asosiy qismi gender yo‘nalishiga taaluqlidir. Ayniqsa, onalar o‘limining yuqori darajasi, o‘smir qizlarning homila dor bo‘lib qolishi, abortlar, erta tuziladigan yoki qarindoshlararo nikohlar, tegishli kontratseptivlarning yetishmasligi, maslahat xizmati va boxabarlikning past darajadaligi gender tengsizligiga borib taqaladi. Loyihada axborot faoliyati tadbirlari keng ko‘lamda amalga oshirmoqda. Jumladan:

- Tug‘ilishlar orasi davriylikka rioya qilish, er-xotinning reproduktiv salomatligini saqlash uchun erkak va ayol o‘rtasidagi masouliyatni yanada oshirish, jinsiy tenglik, uydagi zo‘ravonlik, erta yoshdan nikoh tuzish, giyohvandlikdan ogohlik, jinsiy yo‘llar bila yuqadigan kasalliklar va OIV/OITSning oldini olishga doir masalalarga baьishlangan uzoq muddatli «Ipak yo‘li» radio dramasi davom etmoqda.

- Asosiy tinglovchisi reproduktiv yoshdagi qishloq aholisi hisoblangan «Ipak yo‘li» radio dramasining uzviy davomi bo‘lgan hamda qishloq yoshlari muammolariga qaratilgan «SHahar» radio dramasi ham davom etmoqda.

- «SHahar» radio dramasining mazmun-mohiyati qishloq yoshlariga doir muayyan muammolar, masalan, OITS va jinsiy yo‘llar bilan yuqadigan boshqa kasalliklar, gender muammolari, nikohdan avvalgi jinsiy aloqa, kutilmagan homiladorlik, giyohvandlik, yoshlar va ota-onalar o‘rtasidagi munosabatlardan kelib chiquvchi ruhiy muammolar, ishsizlik va boshqa iqtisodiy, oilaviy, ijtimoiy, ruhiy hamda salomatlikka oid masalalarni chuqurroq ochib berishga qaratilgan.

- Informatsion taolim va kommunikatsiya bo‘yicha loyiha asosida 24 qismli «Ayol zoti» deb nomlangan teledrammani taqdim etildi. Bu teledrama gender tengligiga erishish, uydagi zo‘ravonlik, ota-ona va o‘smirlar orasidagi

munosabatlar, erta tuziladigan va qarindoshlararo nikohlar, giyohvandlikka oid masalalarga baьishlangan. U milliy va hududiy, telekanallar orqali bir necha marta efirga uzatilgan.

- Xotin-qizlar mavqeini oshirish hamda ularga nisbatan zo‘ravonlikka bag‘ishlangan ikkita videoklip IOK loyihasi tomonidan tayyorlanib, salomatlik bo‘yicha Bratislavada o‘tgan ikkinchi Xalqaro festivalga taqdim etildi.

- YuNFPA/YuNESKO tomonidan IOK loyihasi bilan hamkorlikda gender tengligi, OIV/OITSning oldini olish, gigiena, tug‘ishda davriylikka rioya qilishga doir masalalar bo‘yicha plakatlar tayyorlandi va chop etildi.

Mustaqillikka erishganidan so‘ng Markaziy Osiyo davlatlarida yuz bergan ijtimoiy va iqtisodiy o‘zgarishlar bunday ijtimoiy ko‘rsatkichlarning pasayishiga olib keldi. SHuning uchun Markaziy Osiyo davlatlari taolim sohasi rahbarlarining muloqotini yo‘lga quyish va Dakar Deklaratsiyasining ijrosini taominlashda ularga yordam berishga qaror qilingan edi. Bu yo‘sinda YuNESKO, YuNISEF va O‘zbekiston Respublikasi Xalq taolimi vazirligi bilan birgalikda 2004 yil 10–12 mayda Toshkentda «Gender va taolim hamma uchun» mavzuida uchinchi Markaziy Osiyo taolim forumini o‘tkazdi. YuNISEF ko‘rsatayotgan yordam va qo‘llab-quvvatlashga oid qoidalar ijro kengashining 1996 yilda qabul qilingan YuNISEF Missiyasi to‘g‘risidagi nizom da tasdiqlangan: «YuNISEFga bolalar huquqlarini himoyalash, asosiy ehtiyojlarini qondirish va ular o‘zining to‘liq salohiyatini ro‘yobga chiqishga ko‘mak lashish uchun BMT Bosh Assambleyasi tomonidan vakolat beriladi». Ayni paytda, YuNISEF o‘z ishida Bola huquqlari to‘g‘risidagi konvensiya va ayollarga nisbatan kamsitishning barcha turlariga barham berish to‘g‘risidagi konvensiyaga amal qiladi. 2002–2005 yillarga mo‘ljallangan amaldagi o‘rta muddatli strategik rejaga binoan, YuNISEF Vakolatxonalariga mamlakatlardagi vaziyatni baholash, hisobot tayyorlash hamda hamkorlar bilan muhokama etish uchun ustuvor soha bo‘yicha topshiriq berilgan:

YuNISEF bolalar huquqlarini himoya qilish, bolalarning asosiy ehtiyojlarini qondirish va to‘liq salohiyatga yetishi uchun imkoniyatlarini kengaytirishni targ‘ib eta di. Uning taolim dasturi barcha bolalar, ayniqsa qizlarni qo‘llab-quvvatlaydi,

ularning sifatli taolim olishga oid huquqlardan bahramand bo‘lish borasidagi asosiy ehtiyojlarini qondirishga va jamiyat hayotida samarali ishtirok etishiga ko‘maklashadi.

## AMALIY MAShG‘ULOT MATERIALLARI

### 1-amaliy mashg‘ulot.

.

### AMALIY MAShG‘ULOT №2

## AMALIY MASHG‘ULOTLAR MAZMUNI

### 1-AMALIY MASHG‘ULOT: Qadimgi davrda ijtimoiy hayotning o‘ziga xos xususiyatlari.(2 soat)

Qadimgi davr jamiyatining tuzulishi. Qadimgi davrdagi ijtimoiy tabaqalashuv va uning kelib chiqish sabablari. Ijtimoiy tabaqalashuvning mustahkamlanib borishi va uning davlat taraqqiyotiga ta’siri. Ijtimoiy tabaqalashuvning mintaqalar bo‘yicha xususiyatlari.

1. Klaster usuli. pedagogik, didaktik strategiyaning muayyan shakli bo'lib, u ta'lim olovchilarga ixtiyoriy muammo (mavzu) lar yuzasidan erkin, ochiq o'ylash va fikrlarni bemalol bayon etish uchun sharoit yaratishga yordam beradi. Mazkur metod turli xil g'oyalar o'rtasidagi aloqalar fikrlash imkoniyatini beruvchi tuzilmani aniqlashni talab etadi. Klaster metodi aniq obektga yo'naltirilmagan fikrlash shakli sanaladi. Undan foydalanish inson miya faoliyatining ishlash tamoyili bilan bog'liq ravishda amalga oshadi. Ushbu metod muayyan mavzuning ta'lim olovchilar tomonidan chuqur hamda puxta o'zlashtirilguniga qadar fikrlash faoliyatining bir maromda bo'lishini ta'minlashga hizmat qiladi.



**2. Venn diagrammasi.** Ijtimoiy tabaqalashuvning mintaqalar bo‘yicha xususiyatlari.




## 2-AMALIY MASHG‘ULOT: O‘rta asrlar ijtimoiy hayotidagi o‘zgarishlar.(2soat)

O‘rta asrlar davri jamiyatining tuzulishi. O‘rta asrlar davridagi ijtimoiy tabaqalashuv va undagi o‘zgarishlarning sabablari. O‘rta asrlar davridagi ijtimoiy tabaqalashuvning mustahkamlanib borishi va uning feodal davlat taraqqiyotiga

ta’siri. O‘rta asrlar davridagi ijtimoiy tabaqalashuning mintaqalar bo‘yicha xususiyatlari.

1. Nima uchun organayzeri




2. Klaster usuli. Arablarning O‘rta Osiyoni egallashi hududning ijtimoiy hayotiga qanday ta’sir qildi?



3. Venn diagrammasi. Ijtimoiy tabaqalarning markazlashgan davlat tuzishdagi ishtiroki qanday bo‘ldi?

Temuriylar davlati



Fransiya davlati

# GLOSSARIY

| Atama | Izoh |
|---|---|
| **Ijtimoiy munosabatlar** | bu odamlarning mavqei va jamiyatda bajaradigan vazifalari bilan bog'liq ijtimoiy o'zaro ta'sirda yuzaga keladigan turli xil ijtimoiy munosabatlar jamlanmasi. |
| **Jamiyat** | kishilarning tarixan qaror topgan hamkorlik faoliyatlari majmui hisoblanadi. Jamiyatdagi hamma narsa (moddiy va ma’naviy boyliklar, insonlar hayoti uchun zarur bo‘lgan shart-sharoitlarni yaratish va boshqalar) muayyan faoliyat jarayonida amalga oshadi. Insonlar faoliyati va ular o‘rtasidagi ijtimoiy munosabatlar Jamiyatning asosiy mazmunini tashkil etadi. |
| **Sotsiologiya** | bir butun tizim hisoblangan jamiyat haqidagi va ayrim ijtimoiy tartibotlar, jarayonlar, ijtimoiy guruhlar, shaxs va jamiyat munosabatlari to‘g‘risidagi fan. Sotsiologiya ilmiy uslublar yordamida hosil qilingan empirik (tajribaga asoslangan) ma’lumotlarga tayanib umumlashma xulosalar chiqara oladi. Shu tufayli jamiyatning rivojlanish modellarini ilmiy asoslab beradi. |
| **Ijtimoiy guruhlar** | muntazam ravishda bir-birlari bilan o‘zaro muno-sabatga kirishadigan shaxslar guruhi |
| **Temur davrida Buyuk Ipak yo'li** | Temur davrida Buyuk Ipak yo'lining shuhrati yanada oshdi. Amir Temur mo'g’ullar bosqini davrida inqirozga uchragan savdo-karvon yo'llarni qayta tikladi, yangi yo'llar barpo etdi. Amir Temur xalqaro savdo aloqalarni rivojlantirishga katta ahamiyat berdi. |
| **Amir Temur davlati** | Amir Temurning buyuk saltanat barpo qilish bobidagi sa'yharakatini shartli ravishda ikki davrga bo'lish mumkin. Birinchi davr 1370-1388 –yillarni o'z ichiga oladi. Ikkinchi davr 1388-1405 –yillardir. Bu davrda Amir Temur o'z davlatining hududini kengaytirish va buyuk saltanat barpo etishni o'z oldiga maqsad qilib qo'yadi. 1370-1405 –yillar mobaynida, ya'ni 35 –yil Samarqand taxtini boshqargan. Amir Temur o'z oldiga qo'ygan maqsadlariga erishadi. Jumladan, u Shu davr mobaynida 30 martadan ortiq harbiy yurishlar uyushtiradi va biror marta ham yengilmaydi, dunyodagi 28 mamlakatni fath etadi. Temur o'zining uch –yillik (1386-1388), besh –yillik (1392-1398), etti –yillik (1399-1405) yurishlari davomida Ozarbayjonda jaloyirlar, Sabzavorda sarbadorlar davlatini, Hirotda kurdlar davlatini tugatib, Eron va Xurosonni o'z tasarufiga oladi. |
| **Amir Temur davlati boshqaruvi** | Amir Temur davlatining boshqaruv tizimi ikki qismga - qonun chiqaruvchi va ijroiya tizimlariga bo'lingan. Qonun chiqaruvchi tizim qurultoy deb atalib, u asosan yirik turk qabilalarining yo'lboshchilari ishtirokida o'tgan va oliy hukmdor paytida chaqirilgan. qurultoy urush va sulh, davlatning ichki va tashqi siyosatini belgilash kabi masala muammolarni muhokama qilgan va qonunlashtirilgan.Ijroiya tizimi devonlar va boshqa oliy davlat idoralaridan iborat bo'lgan. Davlatning ijroiya tizimi (devonlar) qurultoy qabul qilgan qarorlarni, podshoh farmonlarini va davlatning kundalik yumushlarini hayotga tadbiq etgan. |
| **Amir Temur davlatida yer egaligi shakllari** | Bu davrlarda erga egalikning turli shakllari mavjud edi, suyurg’ol erlar, vaqf erlar, jamoa erlari, xususiy erlar. Vaqf erlar masjid va madrasalarga qarashli erlar bo'lib, ular soliq to'lashdan ozod qilingan. Amir «Temur |

| | |
|---|---|
| | tuzuklari»da yozilishicha, kimki biron sahroni obod qilsa, yoki yer osti suvlarini tortib oladigan inshoot qursa, yo, biron bog’ ko'kartirsa, yoxud biron tashlandiq erni obod qilsa, faqat erni o'zlashtirganining uchinchi –yili (xirojni birinchi, ikkinchi –yil umuman to'lamagan) qonun doirasida xiroj solig’i olingan. Undan tashqari ushr, mol, suvoq kabi soliq turlari mavjud bo'lib, ular –yillar davomida amal qilingan tartib-qoidalarga binoan to'plangan. Soliq to'lovchi soliq yig’ish jarayonida soliqni yaxshi so'zlar bilan to'plashi, aholini kaltaqlash hollari, zanjirband etish hollari kelib chiqmasligini nazorat qilishi shart edi. |
| **«Temur tuzuklari»** | «Temur tuzuklari» buyuk jahongir hayotiga va faoliyatiga bag’ishlangan asarlar ichida Shubhasiz alohida ahamiyat kasb etadi. «Temur tuzuklari»ning boshqacha nomlari: «Molfuzoti Temuriy» (Temo’rning aytganlari), «Voqeoti Temuriy» («Temur hayoti bilan bog’liq voqealar»). Bu asar ikki qism, 56 banddan iborat bo'lib, hukmdorlarning tor doirasigagina zmas, butun dunyo aqliga mashhur bo'lgan. Bizning davrimizgacha uning ko'plab qo'lYozma nusxalari yetib kelgani bundan guvohlik beradi. Asarning nusxalarini Rusiya, hindiston, Eron, Turkiya, Misr, Angliya, Olmoniya, Daniya va boshqa mamlakatlarning kutubxonalarida topish mumkin. |
